

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

X.A. BERDIYEV

**O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH
STRATEGIYASI.
FUQAROLIK JAMIYATI**

**Seminar mashg‘ulotlari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma
I-qism**

(Oliy o‘quv yurtlarining texnik yo‘nalishlari talabalari uchun)

TOSHKENT – 2021

UO‘K: 82-93(074)
KBK: 66.3(5Ў36)
B 55

B 55 **X.A.Berdiyev. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. – T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 100 b.**

ISBN 978–9943–7183–4–0

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma oliy ta‘lim muassasalarida “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanini o‘qitishda talaba-yoshlarda O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi hamda Fuqarolik jamiyatiga doir bilimlar tizimi va tasavvurlarini, jamiyatni rivojlantirishga doir mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, fuqarolik jamiyati haqidagi g‘oyalar, konsepsiyalar, shuningdek, fuqarolik jamiyati qurish jarayonida uning institutlari tizimi va ularning faoliyati haqidagi bilimlarni, dunyoqarashlarni kengaytiradi.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma oliy ta‘lim muassasalari texnik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar, pedagoglar, shuningdek, fuqarolik jamiyati qurish faoliyati bilan qiziquvchi keng jamoatchilik foydalanishlari mumkin.

Данное учебно-методическое пособие расширяет знания студентов о стратегии развития Узбекистана и системе знаний и представлений гражданского общества, формировании навыков независимого мышления для развития общества, идеях и концепциях гражданского общества, системе деятельности его институтов в процессе построения гражданского общества.

Учебно-методическое пособие предназначено для студентов и преподавателей технических специальностей высших учебных заведений, и может быть использовано педагогами, работающими на всех этапах системы непрерывного образования, а также широкой общественностью, интересующейся концепцией гражданского общества и его институтов.

This study guide is used in teaching the subject “Development Strategy of Uzbekistan. Civil Society” in higher educational institutions - the formation of students' knowledge and vision of the development strategy of Uzbekistan and civil society, independent thinking skills for the development of society, ideas and concepts of civil society, the process of building a civil society. A summary of the action strategy, improving the system of state and social construction and the scientific and methodological foundations of building a civil society.

The training manual is intended for technical direction for students and teachers of higher educational institutions.

The manual can be used by teachers working at all stages of the lifelong education system, as well as by the general public interested in the problems of civil society.

UO‘K: 82-93(074)
KBK: 66.3(5Ў36)

Mas’ul muharrir:

K.A. Farfiyeva – pedagogika-psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

A. Utamuradov – falsafa fanlari nomzodi, professor;

F.X. Hikmatov – siyosiy fanlar bo‘yicha(PhD) falsafa doktori .

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining 2021-yil 13-yanvaridagi 6-sonli ilmiy Kengashining qaroriga asosan chop etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978–9943–7183–4–0

© «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021.

2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarini demokratlashtirish va liberallashtirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda aholining ishtirokini ta‘minlash, davlat va xalq o‘rtasida samarali muloqotni o‘rnatishning asosiy yo‘nalishlari asosida ishlab chiqilgan dasturga muvofiq “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanini oliy o‘quv yurtlari bakalavriat yo‘nalishlarida o‘qitish belgilangan.

Shunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 25.08.2018-yildagi 744-sonli buyrug‘i bilan ma‘qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta‘lim muassasasi tomonidan tasdiqlangan. O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan va tavsiya qilingan .

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma oliy ta‘lim muassasalarida “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanini texnika yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavriat bosqichining 3-4 kurs talabalariga mo‘ljallab tuzilgan. O‘quv uslubiy qo‘llanmada fanning maqsadi, vazifalari, mazmuni va malakaviy talablar asosida, mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishiga oid qonuniyatlar, tamoyillar, ustuvor yo‘nalishlar, islohotlarni amalga oshirish mexanizmlari va unga doir zamonaviy konsepsiyalar ochib berilgan. Modernizatsion o‘zgarishlarning ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy, madaniy, siyosiy sohalar orqali amalga oshirilishi, har bir sohaning miqdoriy, mazmunli, strukturaviy holatining almashinuvi natijasida davlat va jamiyat tizimida olib borilayotgan islohotlarning sifat ko‘rsatgichlarini o‘zlashtirib borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Uslubiy qo‘llanma bugungi kun axborotlashgan jamiyatdagi eng so‘nggi ma‘lumotlar bazasiga asosan yoritilgan bo‘lib, dars berayotgan professor-o‘qituvchilar hamda talabalarga zamonaviy pedtexnologiya asosida dars jarayonida qo‘llaniladigan “Taqqidmot” metodi, “Savol-javob” metodi, “Menga so‘z bering” metodi, Klaster metodi, “SWOD – tahlil” jadvali, Toifalash jadvali, Sinkveyn texnologiyasi va fanni o‘qitishda qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalaridan namunalar yordamida Harakatlar strategiyasi

doirasida mavzu mazmunini obrazli, yaxlit tarzda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ijtimoiy masalalar insoniyatni, xususan endi o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni hamma vaqt qiziqtirib kelgan. Yoshlarimiz ijtimoiy shart-sharoit nechog'lik yaxshi bo'lsa, kundalik hayot shunchalik yaxshi, to'kin-sochin, faravon bo'lishini hammadan yaxshiroq tushunadilar. Binobarin, ular ijtimoiy muammolarga befarq qarab turolmaydilar, ularning maqbul yechimini tezroq topishga astoydil harakat qiladilar.

«O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati» kursi bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotlar shunday tashkil etilishi kerakki, biron talaba bu muammolarni hal qilish yo'lidagi sa'y-harakatdan chetda qolmasin. Shu haqdagi o'z fikr-mulohazalari, takliflari bilan o'rtoqlashadigan bo'lsin. Ko'proq talabalar fikrini eshitish kerak. Keyin birgalikda, talabalarning faol ishtirokida mavzuga yakun yasab, tegishli xulosa chiqarish zarur bo'ladi.

Har bir amaliy mashg'ulotda albatta o'tilayotgan mavzuga doir mavjud adabiyotlar bilan bir sidra tanishtirib o'tish yaxshi foyda beradi. Tavsiya etilayotgan har bir adabiyotni ko'rsatib, mazmuni haqida qisqacha so'zlab berish zarur. Ayrim adabiyotning mavzuiga bevosita aloqador yerlarini talabalarga o'qitib, fikrlashib olinsa yanada ma'qul bo'ladi.

Qo'llanmamiz oxirida talabalar e'tiboriga bir necha ilovalarni tavsiya etyapmiz. Ular bilan tanishib, shu mavzular bo'yicha yozma ish yozdirish, fikrimizcha, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunonchi, ilovalardan birida talabalarga nechog'lik bilimli ekanliklarini shaxsan tekshirib ko'rish taklif etilgan, bunda ular uchun zamonaviy pedtexnologik netodlardan sinov namunalari, slaydlar va har bir dars yakunini mustahkamlash uchun test namunalari keltirib otildi. O'z navbatida navbatdagi mashg'ulotda yozma ishlarni birma-bir tahlil qilib, har qaysi talaba bu masalada nimalarga e'tibor berishi zarurligini aniqlab olish kerak bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlar talabalarga nazariy bilimlarini tekshirib ko'rish, kundalik hayotga tatbiq etish borasida katta yordam beradi, fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ma'ruza vaqtida tushunmagan narsalarini yaxshi anglab olishlariga ko'maklashadi.

Shu bois amaliy mashg'ulotlarni namunali tashkil eta bilish nihoyatda muhim. O'ylaymizki, qo'lingizdagi ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma bu jihatdan sizlarga ancha madad bo'ladi.

O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISHDA TEXNOLOGIYALARI

I.1. “Taqdimot” metodi o‘rganiladigan mavzu mohiyatini kompyuter xizmatidan foydalanilgan holda slaydlar majmuasi yordamida ochib borilishini ta’minlaydi. Metodni qo‘llashda mavzuning asosiy g‘oyalari, tayanch tushunchalar, muhim xususiyatlari kichik matn, jadval, tasvir sxema, rasm va diagrammalar asosida yoritiladi, ushbu metod talabalarni mavzu mazmunini obrazli, yaxlit tarzda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

I.2. “Savol-javob” metodi mavzuning talabalar tomonidan qanday o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi

I.3. “Menga so‘z bering” metodi talabalarda o‘rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala yoki tadqiq etilayotgan muammo bo‘yicha shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirish, fikrlarini dalillar bilan isbotlash, ularni himoya qilish, mantiqiy xulosalarni ilgari surish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metod o‘qituvchi talabalar o‘rtasidagi ta’limiy hamkorlikni qaror toptirishga yordam beradi. Mashg‘ulot jarayonida ushbu metodni qo‘llashda talabalar darsning tashkiliy jihatlari, samaradorligi xususida o‘z fikrlarni bayon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

I.4. “Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar va yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ❖ ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- ❖ talabalarga mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar, nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi(individual yoki guruhli tartibda);
- ❖ talabalar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- ❖ belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

❖ har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib baholaydi.

SEMINAR MASHG‘ULOTI MAVZULARI BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fani predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari kursini o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari

1-MAVZU: O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Reja:

1. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fani predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari.

2. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining Yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlantirishi. **“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”** konseptual g‘oyasi.

Kalit so‘zlar: strategiya, fuqaro, fuqarolik jamiyati, manfaat, jamiyat, davlat, milliylik, tiklanish, yuksalish g‘oyasi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 25.08.2018-yil dagi 744-sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlangan. O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan va tavsiya qilingan hamda TDTU “Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan Ishchi dasturga muvofiq tashkil etiladi.

1-MAVZU: O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.FUQAROLIK JAMIYATI FANINING PREDMETI, OBYEKTI, MAQSAD VA VAZIFALARI

SEMINAR MASHG‘ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ishlash bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	<i>O‘qituvchi</i>	<i>Talabalar</i>
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish. 10 daqiqa	1.Nazariy mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va rejasi e’lon qilinadi 2.Mazkur fanning o‘rganiladigan mavzulari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro‘yxati bilan tanishtiradi Seminar darsining maqsadi va o‘quv faoliyati natijalarini aytadi. Talabalarni aqliy hujumga tortish uchun jonlantiruvchi savollar beradi	1.Diqqat bilan tinglaydilar. 2.O‘z fikrlarini bildiradilar.
2-bosqich. Asosiy (informatsion bosqich). 60 daqiqa)	1.Seminar rejasining barcha savollari bo‘yicha vizual materialni namoyish qiladi. Mavzuning asosiy joylarini yozib olishlarini so‘raydi. 2. Talabalarni faollashtirish maqsadida“ajurli arra” interaktiv pedagogik usulidan foydalaniladi. Javoblar tahlil qilinadi va xulosalanadi. 3. Mavzu yuzasidan berilgan savol ko‘rgazmali sxemalar asosida bayon etiladi. Berilgan javoblar tahlil qilinadi va xulosalanadi. 4. O‘rtaga savol munozara uchun tashlanadi “Fuqarolik jamiyati tushunchasi rivojining asosiy doktrinalari va konsesiyalari” Munozara jarayonini kuzatib yo‘naltirib boradi, yakun yasaydi.	2.1.Talabalar ma’ruzachi tomonidan berilgan ma’lumotlarni diqqat bilan tinglab, o‘z nuqtayi nazarlarini erkin fikr orqali bayon etadi. 2.2.Talabalar diqqat bilan tinglab,yozib oladilar.Talabalar har bir savollarga aniq javob beradilar. 2.3.Talabalar juft-juft bo‘lib bahs-munozara qiladilar.

3-bosqich. yakunlovchi bosqich. 10 daqiqa	Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi. Faol ishtirok etgan talabalarining bilim va ko'nikmalarini baholaydi. Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan masalani e'lon qiladi, va mustaqil tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi. 4. Ma'ruza anjuman darsining dokladlar mavzusi beriladi. 5. Kelgusi mavzu e'lon qilinadi va seminarga tayyorlanib kelishni aytadi. 6. O'z-o'zini nazorat yuzasidan savollar bilan tanishadi. 7. Adabiyotlar ro'yxati tavsiya etiladi.	1. Talabalar tinglaydilar, aniqlaydilar. 2. Faol talabalar baholanadi 3. Mustaqil ishlash uchun topshiriqni yozib oladi 4. Uyga vazifani yozib oladilar
--	--	---

Mavzu rejasi uchun tarqatma material namumasi:

1. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fani predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari

I.I. "Taqqimot" metodi slaydlari


2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonida mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarini demokratlashtirish va liberallashtirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda aholining ishtirokini ta'minlash, davlat va xalq o'rtasida samarali muloqotni o'rnatishning asosiy yo'nalishlari asosida ishlab chiqilgan dasturga muvofiq "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" fanini oliy o'quv yurtlari bakalavriat yo'nalishlarida o'qitish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 25.08.2018-yil dagi 744-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlangan. O'zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan va tavsiya qilingan.

1-slayd

Avvalo, yil davomida mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etilganini ta'kidlash joiz. 2017-yil 23-dekabridagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasidan.	
---	--

2-slayd



3-slayd

“O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fanining asosiy qonuniyatlari quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan, u o'z xususiyatiga ko'ra, O'zbekistonning chinakam mafkuraviy mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga asoslangan o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlari haqida saboq beradi.

Ikkinchidan, fanni o'rganishda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun xos barcha shakl va uslublarga tayaniladi. Mavjud voqea va hodisalar qat'iy aniqlikda, ilmiy, g'oyaviy tahlilga tayangan holda, ma'lum davriy ketma-ketlikda, tarixiy xronologik asosda o'rganiladi.

Uchinchidan, talabalarga mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning g'oyaviy asosi, jamiyatni innovatsion Yangilash va modernizatsiyalash haqida bilimlar berish o'ta dolzarb masalasi sifatida havola etiladi.

To'rtinchidan, ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil metodlari asosida O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi fuqarolik jamiyati shakllari va rivojlanish tajribalarini solishtirishgan holda O'zbekiston davlatining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib berishdan iborat.

4-slayd



5-slayd



6-slayd

Fanning predmeti shaxs-jamiyat – davlat o'rtasidagi munosabatlar majmuini tashkil etadi. Shaxsning jamiyat bilan aloqasi u hayotining barcha davrida asosiy o'rinda bo'lib kelgan. Jamiyatda inson tug'ilib o'sadi, rivojlanadi, harakat qiladi u yo bu maqomga ega shaxsga aylanadi. Individing shaxs bo'lib shakllanishida o'zi yashayotgan jamiyatdagi shart-sharoit, o'z o'rnini topishida ma'lum ma'noda ijtimoiy hayotga munosib qobiliyatlari rivojlanganligi, amaliy faoliyatida paydo bo'ladigan sa'y-harakatiga bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

7-slayd

Fanning asosiy maqsadi: talabalarda faol fuqaroga aylanish ko'nikmalarni shakllantirish, ularning faol fuqaroviylik pozitsiyaga ega bo'lishida shaxsiy mas'uliyat hissini uyg'otish, hayotda o'z o'rnini topishida ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga munosib bo'lib ulg'ayishiga doir tarbiyani singdirishdan iborat.

8-slayd

FUQAROLIK JAMIYATINIG ASOSIY FUNKSIYALARI	fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va o'zaro yordam ko'rsatish;
	davlat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish(jumladan, inson huquqlarini himoya qilish);
	boshqaruvda ishtirok etish - mahalliy, milliy, xalqaro darajada;
	insonparvarlikka asoslangan demokratik qadriyatlarni tan olish.

9-slayd



10-slayd

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalari

Formatsion va sivilizatsion yondoshuvlar


Modernizatsiya va post modernizm konsepsiyasi

11-slayd

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy konsepsiyalarining asosiy yondashuvlari

Formatsion yondoshuv	Sivilizatsion yondashuv	Modernizatsiyaviy yondashuvi
Fuqarolik jamiyati tushunchasi kapitalistik tizimga bogʻlanadi va keng (yaʼni jamiyatning shakli sifatida) va tor (yaʼni iqtisodiy va siyosiy munosabatlar oʻrtasidagi shakllanadigan muayyan ijtimoiy tashkilotlar majmuasi sifatida) maʼnolarda tushuniladi.	Fuqarolik jamiyatini sivilizatsiya taraqqiyoti kontekstida koʻrib chiqiladi. Uning nazariy asoslarini O.Shpengler, A.Toynbi va P.Sorokin asarlarida yaratilgan. Ularga qaraganda, fuqarolik jamiyati boshqa ijtimoiy shakllardan avvalo yuksak sivilizatsiya darajasi bilan ajralib turadi. Uning asosiy mezoni sifatida esa inson, uning erkinligi, rivojlanish va ijodiylik imkoniyatlari, shuningdek boshqa insonlar bilan tinchlik va totuvlikda yashash qobiliyatlari tan olinadi.	Modernizatsiya konsepsiyalarida (A.Turen, Yu.Xayberman, E.Giddens, Z.Bauman va b.) fuqarolik jamiyati anʼanaviy jamiyat oʻrnini egallagan yoki zamonaviy jamiyatga xos boʻlgan belgilarni shakllantiradigan jamiyati tushuniladi.

12-slayd



13-slayd

Fuqarolik jamiyati – bu:

14-slayd

birinchidan, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir

ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir.

uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli organlar tazyiqlari, aralashishlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat bo'lib, unda ular o'zligini namoyon eta olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

15-slayd

I.2. “Savol-javob” metodi mavzuning talabalar tomonidan qanday o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi quyidagilarni nazorat savoli sifatida talabalarga beradi.

Nazorat savollari:

- 1.O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat.
- 2.Milliy g‘oyaning mustaqil demokratik taraqqiyotni ta’minlashning muhim sharti ekanligini isbotlang.
- 3.O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati fanining qonuniyatlari, asosiy tushunchalari, g‘oyaning jamiyat rivoji bilan uzviy bog‘liqligi nimalarda aks etadi.
- 4.Fuqarolik jamiyati fanining tushunchalari, qonuniyatlari va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi xususida gapiring.
- 5.Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini qurish – davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim omil ekanligini nimalarda aks etadi?

2. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlantirishi. **“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”** konseptual g‘oyasi bo‘yicha amaliy topshiriq.

I.3. “Menga so‘z bering” metodi talabalarda o‘rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala yoki tadqiq etilayotgan muammo bo‘yicha shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirish, fikrlarini dalillar bilan isbotlash, ularni himoya qilish, mantiqiy xulosalarni ilgari surish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Konseptual g‘oya – bu	
Milliy tiklanish – bu	
Milliy yuksalish – bu	
“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” konseptual g‘oyasi – bu...	

TESTLARDAN NAMUNA №1.

1. «O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi.Fuqarolik jamiyati» fanining predmetini nimalar tashkil qiladi?

- a) Davlatning tashkil topishi va funksiyalari;
- b) Jamoatchilik tashkilotlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar o‘rtasida o‘zaro bog‘langan munosabatlari, siyosiy hokimiyat, siyosatning amalga oshirilishi va funksiyalari;

c)* shaxs-jamiyat – davlat o‘rtasidagi munosabatlar mujmuini tashkil etadi;

d) jamiyat hayotida ijtimoiy siyosiy jarayonlar, siyosiy madaniyat va odamlar faolligi.

2. «O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi.Fuqarolik jamiyati» fanining obyektini nimalar tashkil qiladi?

a)*O‘zbekiston fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi ishtiroki hisoblanadi;

b) O‘zbekiston fuqarolarining o‘z manfaatlari uchun kurashishini ta’minlash;

c) Adolat vaksinasi bilan qurollanib xalq manfaatlari yo‘lida faoliyat olib borish;

d) Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak tamoyiliga amal qilish.

3. Fuqaro so‘zi qaysi tilidan olingan va qanday ma’noni bildiradi?

a) arab tilidan olingan bo‘lib, bu dunyodan voz kechgan ma’naviy dunyosi boy insondir;

b) ruscha “grajdanin” so‘zidan olingan, biror bir davlatga mansub ozod va erkin shaxs;

c) XVII asrda rus siyosatchisi Radishchev biror bir davlatga mansub aholining ma’lum qonunlar doirasida ish ko‘rishi;

d) inglizcha “citizen” so‘zidan olingan bo‘lib, shaharlik mazmunini anglatadi.

4. Fuqarolik jamiyati tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) * kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo‘lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadigan ijtimoiy tizimdir;

b) kishilik jamiyatida iqtisodiy faoliyati mahsuli bo‘lib, davlatning rivojlanish darajasini belgilaydigan munosabatdir;

c) qadimgi davrdan shakllanib kelayotgan huquqiy munosabatlaridir;

d) jamiyatning ijtimoiy munosabatlari tizimidir.

5. Fuqarolik jamiyatining shakllanish bosqichlarini ko‘rsating?

a) IX –XV, XVI-XIX asrlar;

b) IX –XV, XVI-XIX, XX asrdan hozirgi kungach;

c)XV-XVI, XVII-XIX asrlar;

d) * XVI-XVII, XVIII-XIX, XX asrdan XXI asr birinchi choragi.

2-MAVZU: HARAKATLAR STRATEGIYASI – O‘ZBEKISTON

MILLIY TARAQQIYOTI YANGI BOSQICHINING ASOSI

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi – O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichining asosi.

2. Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor yonalishlar natijalari va mazmun-mohiyati.

Kalit so‘zlar: strategiya, davlat va jamiyat qurilishini takomillash-tirish, qonun ustuvorligi, sud islohotlari, iqtisodiyot, liberallashtirish, ijtimoiy soha, xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik.

2-MAVZU: HARAKATLAR STRATEGIYASI – O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTI YANGI BOSQICHINING ASOSI

(Seminar-2 soat)

O‘quv mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

AMALIY MASHG‘ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish. 15 daqiqa.	Amaliy mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va o‘qitish natijalari e‘lon qilinadi. Talabalarga uyga vazifa qilib berilgan fuqarolik jamiyat to‘g‘risida G‘arb olimlari va sharq olimlari qarashlarini qiyosiy tahlil bo‘yicha konspektlari tekshiriladi, baholanadi. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e‘lon qiladi Kompyuter proyektor va doskadan foydalanib jadvallar,	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar. O‘z fikrlarini guruhlariga ajralgan holda jamoa bo‘lib bildiradilar.

	chizmalar orqali mashg'ulot rejasi va asosiy tushunchalarni sharhlab beradi.	
2-bosqich. Asosiy (informatsion bosqich). 50 daqiqa.	Keysda bor bo'lgan materiallarni muhokama qilishni tashkillashtiradi, diqqatni keys bilan ishlash qoidalariga, muammoni yechish algoritmiga va vazifani aniqlashtirishga qaratadi; Mustaqil ravishda uyda yozib kelingan vaziyat tahlilini o'tkazishni taklif qiladi; Talabalarni 2 ta guruhga ajratadi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni "Muammoli vaziyat" uslubidan foydalanilgan holda tarqatadi; Kichik guruhlarda keys bilan yakka tartibda bajarilgan ishlar natijalarini muhokama qilishni tashkillashtiradi. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi; Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi; Talabalarning fikrlarini umumlashtirib bo'lgach, har bir guruhga "Baliq skeleti" texnikasidan foydalanilgan holda talabalarning taqdimotda ko'rsatilgan fikrlarini umumlashtiradi	2.1.Talabalar ma'ruzachi tomonidan berilgan savollarni diqqat bilan tinglab, o'z nuqtayi nazarlarini erkin fikr orqali bayon etishi ta'minlanadi. 2.2.Talabalar bahs munozaraga kirishadi. Bu uslub guruhlariga bo'lingan holda amalga oshiriladi. 2.3.Jamoalarga ajratilgan holda guruh sardori saylab olinadi. Jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi hosil qilinadi. Talabalar o'z fikrlarini izohlaydi diagrammani to'ldiradi. 2.4.Organayzerni to'ldiradi. 2.5.Jadvalni to'ldiradi.
3-bosqich. Yakunlovchi bosqich. 15 daqiqa	Mavzuda qo'yilgan savollar va ularning yoritilganiga o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi)	3.1.Talabalar tinlaydilar, aniqlaydilar. Uyga vazifani yozib oladilar.

	aytilmagan tomonlari ustida ishlash lozimligini aytadi. Guruhlarga o‘zaro baholash natijalarini e’lon qiladi, amaliy natijalar baholanadi. 1.Talabalarga seminar mavzusi yuzasida mustaqil ta’lim mashg‘uloti uyga vazifa qilib beriladi.	O‘UM ga qarang.
--	---	-----------------

2.1.Organizeyrda aks etgan yo‘nalishlarga ketma-ketlikdagi raqamni qo‘yib chiqish¹

Davlat boshqaruvi samaradorligiga erishish

Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish


Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish

Keys bilan yakka tartibda ishlash topshirig‘i

Prezident devoni va Vazirlar Mahkamasining tuzilmalari, funksiyalari va vazifalari o‘zgartirildi. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi qabul qilindi. Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi qabul qilindi. **Xalq deputatlari Kengashlari tarkibi kiritildi.** Bu yangi tuzilgan bo‘lib, Toshkent aholisi o‘z vakillari – deputatlar orqali shahar tumanlarini boshqarishda ishtirok etishlari mumkin. **Parlament a’zolarining har oy dala tashriflari amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.**Parlament a’zolari ishlarning haqiqiy holatini o‘rganish va mavjud muammolarni hal qilish choralarini ko‘rish uchun joylarga boradilar. Ushbu chora hukumat va aholi o‘rtasida muloqot o‘rnatish, fuqarolarning muammolariga davlat organlarining qiziqishini namoyish etish imkonini berdi. **Prezidentga va hukumatga murojaat qiladigan jismoniy va yuridik shaxslar tizimi ishlari rivojlanmoqda.**

Ushbu yo‘nalish Harakatlar strategiyasining qaysi yo‘nalishiga kiradi?

¹ Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ma’ruza mashg‘ulotlarida foydalaniladigan interfaol metodlar hamda talabalarga beriladigan topshiriq va vazifalar soni 5 tadan ortiq bo‘lmasligi maqsadga muvofiqdir.



TESTLARDAN NAMUNA №2.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni qabul qilingan sanani aniqlang?

a)* 2017-yil 7-fevral;

- b) 2016-yil 4-dekabr;
- c) 2017-yil 17-yanvar;
- d) 2016-yil 8-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari nechanchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan?

- a) ikkinchi ustuvor yo‘nalish;
- b)* birinchi ustuvor yo‘nalish;
- c) uchinchi ustuvor yo‘nalish;
- d) beshinchi ustuvor yo‘nalish.

3. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish qaysi ustuvor yo‘nalishda mustahkamlangan?

- a) ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- b) qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari;
- c)* davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;
- d) iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.

4. Ma‘muriy organlarning ma‘muriy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi prosessual qoidalar qanday nomlanadi?

- a).*Ma‘muriy tartib-taomil;
- b). Ma‘muriy organ;
- c). Ma‘muriy hujjat;
- d). Ma‘muriy shikoyat.

5. O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi qachon qabul qilingan?

- a) 2016-yil 14-dekabr;
- b) 2017-yil 3-yanvar;
- c) 2017-yil 7-fevral;
- d) *2017-yil 8-sentabr.

3-MAVZU. DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Reja:

1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish.
2. O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi va davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish.

Tayanch iboralar: davlat boshqaruvi, boshqaruv funksiyalari, boshqaruvi shakli, hukumat, davlat vakolatlari, tizimli boshqaruv, funksional boshqaruv.

3-MAVZU: DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

(Seminar-2 soat)

O'QUV MASHG'ULOTINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI MODELI

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqt – 2 soat</i>
<i>O'quv mashg'ulot shakli</i>	Kirish, informatsion-ma'ruza vizual usulda
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish 2. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish 3. O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi 4. Davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish.
<i>O'quv nazariy mashg'ulot maqsadlari:</i>	Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish tushunchalarining qisqacha tasnifi. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish – insoniy taraqqiyot uchun zaruriyat sifatida. Fuqarolik jamiyati sharoitida ijtimoiy tuzilmalar va ularning o'ziga xos jihatlari. O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi jamiyat ijtimoiy tuzilmalarining tizimli va funksional xususiyatlari. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat ijtimoiy tuzilmalarining rivojlanishida Yangi tamoyillar. Davlat xizmatlarini

	ko'rsatish samaradorligini oshirish. Jamiyating ijtimoiy qatlamlari va ularning o'ziga xos manfaatlari, xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish.
<i>O'quv faoliyati natijalari</i>	
<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
• Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish ijtimoiy tuzilmalari to'g'risida ma'lumotlar berish. Shuningdek, davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish masalasidagi amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar berish ijtimoiy tuzilmalar va ularning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq masalalar ilmiy bayon etiladi). • Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat sotsial strukturalarining rivojlanishida yangi tamoyillar va ularning ahamiyatini yoritib berish; • Jamiyatning ijtimoiy qatlamlari va ularning o'ziga xos manfaatlari, xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish. Davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish - insoniy taraqqiyot uchun zaruriyat	Jamiyatning ijtimoiy strukturasiga doir dastlabki talqinlar, "jamiyat", "ijtimoiy" va "tuzilma" tushunchalarining mohiyatini anglab yetadilar; Fuqarolik jamiyati sharoitida sotsial strukturalarga tasnif berish ijtimoiy tuzilmasi to'g'risidagi bilimlarni tahlil etishda unga doir kategoriyalar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lishadi; Shuningdek, G'arb mamlakatlarida bozor munosabatlarini sotsial birliklar determinanti sifatida talqin etadigan konsepsiyalar va uning natijalarini atroflicha o'rganadilar.

sifatida atroflicha tushuntirib berish.	
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Vizual ma'ruza, blis-so'rov, aqliy hujum, BBB, insert.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, lazerli proyektor, vizual materiallar.
<i>O'qitish shakli</i>	Keng qamrovli, jamoaviy, juftlikda ishlash.
<i>O'qitish sharoiti.</i>	Guruhda ishlash uchun ajratilgan auditoriya.
<i>Baholash mezonlari</i>	Og'zaki nazorat, blis-so'rov, test

Mavzuga doir diagrammalar

DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA KO'ZDA TUTILAYOTGAN ENG MUHIM CHORA-TADBIRLAR

Oliy Majlis palatalari hamda davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasida qonun ijodkorligi faoliyati va qonunlar ijrosini ta'minlash sohasidagi o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida:		Xalq deputotlari mahalliy Kengashlari kotibiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha: kotibiyat xodimlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida o'quv kurslari tashkil qilish; ↓	
davlat boshqaruvi organlari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmasida Oliy Majlis palatalari bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun mas'ul bo'lgan rahbar o'rinbosarini belgilash		kotibiyat xodimlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida o'quv kurslari tashkil qilish; ↓	

Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida: boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar funksiyalar va byurokratik to‘siqlar hamda majlisbozlikni qisqartirish; ↓	O‘rta va quyi bo‘g‘in boshqaruv idoralarining faoliyatini tubdan takomillashtirish bo‘yicha:		
boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar funksiyalar va byurokratik to‘siqlar hamda majlisbozlikni qisqartirish;		viloyat, tuman, shahar va mahalla boshqaruvida samaradorlikni oshirish uchun xodimlar soni va maoshini hududning o‘ziga xosligi va ish hajmidan kelib chiqib belgilash; ↓	
vazirlik va idoralar faoliyatida qator qabul qilish jarayonlarini soddalashtirish; ↓		quyi tizim rahbarlari va xodimlarini yangicha talablar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali ishlashga o‘rgatish va malakasini oshirib borishning aniq tizimini joriy nazarda tutilmoqda. ↓	
raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan ish jarayonlarini optimallashtirish; ↓			
davlat boshqaruvi xodimlari sonini o‘rtacha 15 foizgacha optimallashtirish;		vazirliklarda faoliyatni tuman, shahar qishloq va mahalla kesimida rejalashtirish tizimini joriy etish:	


DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA KO'ZDA TUTILAYOTGAN ENG MUHIM CHORA-TADBIRLAR

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni tanlash, ularning malakasini oshirish va faoliyatini baholash bo'yicha samarali va ochiq tizimni joriy etish maqsadida:

Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizimni yaratish uchun:

“Bepul yuridik yordam to'g'risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish. Qonun loyihasida:
bepul yuridik yordam sohasida xalqaro standartlar va xalqaro tajribani hisobga olish; ↓

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni tanlash, ularning malakasini oshirish va faoliyatini baholash bo'yicha samarali va ochiq tizimni joriy etish maqsadida:					
kadrlarni tanlash va ishga qabul qilishda ularning intellektual salohiyati, ma'naviy fazilatlarini baholaydigan ochiq va oshkora tizimni joriy etish		xotin-qizlar jamoatchilik kengashlarining muvofiqlashtirilgan tizimini tashkil etish hamda ularning vazifa va vakolatlarini aniq belgilash		bepul yuridik yordam sohasida xalqaro standartlar va xalqaro tajribani hisobga olish; ↓	
korruptsiyaning oldini olish bo'yicha davlat xizmatchilarini muntazam o'qitish va bilimni baholab borish tizimini joriy etish		xotin-qizlar oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasini Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi ixtiyoriga o'tkazish		kam ta'minlangan va boshqa jismoniy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolarga bepul yuridik yordam ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari; ↓	

vazirlar va ularning o‘rinbosarlari faoliyatini joylarda, shu jumladan mahallalarda amalda qanday o‘zgarish bo‘lganiga qarab baholab borishni yo‘lga qo‘yish		ayollarning biznes sohasidagi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash hamda joylarda aniqlangan xotinqizlar muammolarini hal etish uchun budjetdan qo‘shimcha mablag‘larni yo‘naltirish		kam ta‘minlangan va boshqa jismoniy himoyaga muhtoj bo‘lgan fuqarolar uchun jinoiy, ma‘muriy, fuqarolik ishlari bo‘yicha davlat tomonidan bepul yuridik yordam olish imkoniyatini kengaytirish; ↓	
DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI BO‘YICHA KO‘ZDA TUTILAYOTGAN ENG MUHIM CHORATADBIRLAR 		joylarda xotinqizlarni tadbirkorlikka o‘qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olishda ularga amaliy yordam ko‘rsatishning yangi tizimini joriy etish.		davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatlarni elektron tanlash tizimini joriy etish nazarda tutilmoqda.	

Hokimliklar tomonidan **“E-Qaror”elektron tizimi** orqali qaror qabul qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadida:


Nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligi va faoliyatining samaradorligini oshirish uchun:

So‘z erkinligini ta‘minlash va ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish **huquqiy asoslarini yanada kuchaytirish** maqsadida:


Davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni tanlash, ularning malakasini oshirish va faoliyatini baholash bo‘yicha samarali va ochiq tizimni joriy etish maqsadida:					
mahalliy davlat hokimiyati idoralarining qarorlarini hisobga qo‘yish va e‘lon qilish bo‘yicha elektron axborot tizimini joriy etish		Eng avvalo, ta‘lim, madaniyat, tibbiyot, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo‘jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash , ularni chuqur tahlil qilish, yechimlari bo‘yicha taklif ishlab chiqish, ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta‘minlashga ijtimoiy buyurtma asosida nodavlat notijorat tashkilotlarini keng jalb qilish amliyotini yo‘lga qo‘yish	Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Nodavlat notijorat tashkilotlarining doimiy vakili institutini joriy etish ;	OAVni yanada rivojlantirish, mustaqil faoliyat yuritishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash; ↓	
elektron tizimdan foydalanish, uni yuritish va unda jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash tartibi				jurnalist va bloggerlar erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslarni yanada kuchaytirish;	
elektron tizim orqali qabul qilinmagan hujjatlarni amalga kiritganlik hamda normativ-huquqiy hujjatlarni adliya organlarida huquqiy			Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash fondi faoliyati uchun 2021-yilda	davlat organlarida axborot xizmatlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish;	

Amaliy topshiriqlar

3.1. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi mavzusi bo‘yicha berilgan topshiriqlarni shaxsiy mulohazalaringiz orqali bayon eting



“SWOD – tahlil” jadvali



“SWOD – tahlil” jadvali

S	W
O	D

TESTLARDAN NAMUNA №3.

1. Fuqarolarning davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan qaysi organga murojaat qilish huquqi kafolatlanadi?

a).* sudga;

- b). fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organiga;
- c). hokimga;
- d). prokurorga;

2. Kim fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili hisoblanadi?

- a). * O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;
- b). O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi;
- c). O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;
- d). Mahalliy davlat hokimiyati organlari.

3. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda davlat xizmat-chilari quyidagi qaysi harakatlarni darhol amalga oshirishlari shart?

- a) * o'z rahbarini xabardor qilishi kerak;
- b) uni bartaraf etish rejasini ishlab chiqishi lozim;
- c) mazkur holatni sir tutishi lozim;
- d) sudga murojaat chqilishi lozim.

4. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi qaysi organlar tomonidan o'tkaziladi?

- a) * Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri adliya boshqarmalari;
- b) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri prokuraturalari;
- c) Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya boshqarmalari;
- d) Toshkent davlat yuridik universiteti.

5) Davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish masalalari Harakatlar strategiyasining qaysi ustuvor yo'nalishida o'z aksini topgan?

- a) Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
- b) * Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish;
- c) Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
- d) Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish.

4-MAVZU. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Reja:

1. Qonun ustuvorligi va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirish.

2. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikning oldini olish tizimini takomillashtirish yo'llari, jamoatchilik nazorati va kafolatlangan xavfsizlik.

Tayanch so'zlar: qonun, huquq, sud, sud hokimiyati, ma'muriy, jiniyat, fuqarolik va iqtisodiy qonunchilik, jinoyatchilikka qarshi kurash.

AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. 20 (daqiqqa).	1. Amaliy mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'qitish natijalari e'lon qilinadi. 2. Talabalarga uyga vazifa qilib berilgan "Qonun ustuvorligi va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash" yuzasidan yozilgan esseni tekshiradi, baholaydi. Amaliy mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini e'lon qiladi. 3. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi 4. Kompyuter proyektor va doskadan foydalanib jadvallar, chizmalar orqali mashg'ulot rejasi va asosiy tushunchalarni sharhlab beradi.	1.2. Diqqat bilan tinglaydilar. O'z fikrlarini guruhlariga ajralgan holda jamoa bo'lib bildiradilar.
2-bosqich.	1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni	2.1. Talabalar ma'ruzachi tomonidan berilgan savollarni diqqat bilan

Asosiy (informatson bosqich). (50 daqiqa)	modernizatsiya qilish deganda nimani tushunasiz? 2. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish tushunchalari qanday ta'riflanadi? 3. O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat? 4. Davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish. xususiyatlari nimalardan iborat? Darsda bilimlarni mustaqil to'ldirib borish; kompyuter texnikasi va axborot tizimlaridan foydalanish; o'z mehnatini jamoa bo'lib tashkil etish, o'z kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan axborotni to'plash, saqlash va qayta ishlashning texnologiyasi va kompyuter usullarini bilish; Yangi bilimlarni umumlashtirish, zamonaviy ahborot-ta'lim texnologiyalarini qo'llay olish.	tinglab, o'z nuqtayi nazarlarini erkin fikr orqali bayon etadi. 2.2.Talabalar bahs munozaraga kirishadi. Bu uslub guruhlariga bo'lingan holda amalga oshiriladi. 2.3.Jamoalarga ajratilgan holda guruh sardori saylab olinadi. Jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi hosil qilinadi. Talabalar o'z fikrlarini izohlaydi diagrammani to'ldiradi. 2.4.Organayzerni to'ldiradi. 2.5.Jadvalni to'ldiradi.
3-bosqich. yakunlovchi bosqich. (10 daqiqa)	Mavzuda qo'yilgan savollar va ularning yoritilganiga o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) aytilmagan tomonlari ustida ishlash lozimligini aytadi. Guruhlarga o'zaro baholash natijalarini e'lon qiladi, amaliy natijalar baholanadi. 1.Talabalarga seminar mavzusi yuzasida mustaqil ta'lim mashg'uloti uyga vazifa qilib beriladi.	3.1.Talabalar tinlaydilar, aniqlaydilar. Uyga vazifani yozib oladilar. O'UM ga qarang.

Mavzuga doir diagrammalar

4-MAVZU. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirish maqsadida:

	Oliy Majlis Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) huzurida qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha jamoatchilik guruhini tashkil etish, ushbu guruhlar faoliyatini ommaviy axborot vositalari orqali keng va muntazam yoritish;		Ombudsman huzurida qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha jamoatchilik guruhlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar bilan o'zaro munosabatda bo'lish qoidalarini belgilash hamda ular o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish		qiynoq uchun javobgarlik belgilovchi normalarni xalqaro konvensiya talablariga muvofiqlashtirish, shuningdek qiynoq jinoyatini sodir etgan shaxslarga nisbatan shartli hukm qilish, jazoni o'tash muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti qo'llanmasligini belgilash
	Ombudsman tomonidan har chorakda jamoatchilik guruhlari bilan birgalikda tergov izolatortori va jazoni o'tash muassasalariga "monitoring tashriflari" tizimini yo'lga qo'yish;		harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarning yagona elektron reestrini yuritish		Oliy Majlis palatalarida har yili Ombudsmanning qiynoqlarining oldini olish bo'yicha ma'ruzasini eshitib borish tartibini belgilash

harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda **qiynoqning oldini olish bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish**, shu jumladan bunday joylarda har chorakda kamida bir marta **monitoring tashriflarini amalga oshirish**.



4-MAVZU. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Ma'muriy jazolar miqdorini ma'muriy huquqbuzarlikning xavfsizlik darajasidan kelib chiqib maqbullashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqish. 	 Xalqaro standartlar va insonparvarlik tamoyilini keng joriy etgan holda jazoni ijro etish va probatsiya xizmatini yanada takomillashtirish maqsadida:	 jazoni yengilrog'i bilan almashtirish va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish to'g'risida taqdimnoma kiritish vakolatini jazoni ijro etish organlari (muassasalari) dan yangi tashkil etilayotgan insonparvarlik komissiyalariga o'tkazish;	 probatsiya nazoratidagi shaxslarning xatti-harakatlarini, ularga elektron braslet taqqan holda, real vaqt rejimida elektron kuzatish va monitoring qilish tartibini joriy etish;
Qonuni loyihasida: ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilangan jazo miqdorlarini huquqbuzarlikning ijtimoiy xavfsizlik darajasidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish, jarima tarzidagi ma'muriy jazolarning miqdorini maqbullashtirish;	 xalqaro standartlardan kelib chiqib, 25 ta manzil koloniyalarni bosqichma-bosqich qisqartirish;	probatsiya xizmati markaziy va hududiy mahkamalari maqomini oshirish, ushbu xizmatning kadrlar salohiyati va moddiy-texnik	 "probatsiya faoliyati" ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish;

		 bazasini mustahkamlash;	
	 birinchi marta ozodlikdan mahrum qilish jazosiga mah-kum qilingan va qat'iy tuza-lish yo'liga o'tgan mah-kumlarni manzil-kolo-niyalarga o'tkazish amaliyotini bekor qilib, ularni jazoni yengilrog'i bilan almash-tirish asosida to'g'ridan-to'g'ri probat-siya nazora-tiga olish tartibini joriy qilish;	 probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ularni ijtimoiy moslashtirish va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish;	hokimliklar huzuridagi ozodlikdan mahrum etish joylardan ozod qilingan  shaxslarni reabilitatsiya qilish va ijti-moiy moslash-tirish markaz-lari faoliyatini takomillashti-rish taklif etilmoqda.

QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Aholi osoyishtaligini ta'minlash va mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning "Ozod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan tizimini joriy qilish ishlarini faollashtirish maqsadida:



hududlarda sodir bo'layotgan har qanday turdagi qonun buzilish holatlarini aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish borasida fuqarolar yig'ini raisi va profilaktika inspektorining rolini oshirish, tashkilotlar mas'uliyatini kuchaytirish;

mahallalarda huquqni muhofaza qilish organlari va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib boriladigan profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida milliy gvardiya organlari harbiy xizmatchilari va xodimlarining jinoyatchilikni jilovlash va huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish borasida faoliyatini respublikaning jinoyatchilik o'sgan barcha mahallalarida yo'lga qo'yish;



"mahallabay" o'rganish, aniqlangan ijtimoiy-maishiy muammolarni bartaraf etish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlashni muntazam ravishda monitoring qilish ishlarini amalga oshirishda zamonaviy texnika va raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish;



Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish uchun:



Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2025-yillarga mo'ljallangan milliy strategiyani ishlab chiqish;

Aniq indikatorni o'zida aks ettiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlarini belgilash va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;



Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyati huquqiy asoslarini takomillashtirish;

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komrplaynes-nazorat") huquqiy asoslarini yaratish hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning vositalarini takomillashtirish.



QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Internet jahon axborot tarmog'ida, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish choralarini takomillashtirish va tegishli shaxslarni fosh etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish; 	Qaror loyihasida: 	yuridik xizmat ko'rsatish markazlari xodimlariga imtiyoz va afzalliklarni nazarda tutish; 
 Davlat organlari va tashkilotlarini huquqiy javobgarligini ta'minlashni yanada takomillashtirish maqsadida yuridik xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etishga qaratilgan Prezident qarori loyihasini ishlab chiqish;	 tuman(shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari shtat birliklari hisobidan yuridik xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish; yuridik xizmat ko'rsatish markazlari-ning huquqiy maqom asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlarini aniq belgilash; 	 yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun bino va moddiy texnika resurslariga mablag'larni tegishli mahalliy budjet, adliya organlari va muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ajratishni nazarda tutish;
	Davlat organlari va tashkilotlarga yuridik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq	

	 barcha ma'lumot va jarayonlarni elektron ravishda yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va amalga oshirish imkonini beruvchi "E-huquqshunos" elektron tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.	 yuridik xizmat ko'rsatish markazlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash choralari ko'rish nazarda tutilmoqda.
---	--	---

Darsda SINKVEYN texnologiyasidan ham foydalanish mumkin

Sinkveyn – bu besh qatordan iborat bo'lib, unda bir tushuncha haqida axborot beriladi:

Birinchi qatorda – mavzu(kalit) so'z beriladi.

Ikkinchi qatorda – unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi.


Uchinchi qatorda – unga harakat-holat(fe'l) bilan to'ldiriladi.

To'rtinchi qatorda – so'z har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi.

Beshinchi qatorda – kalit so'zning ma'nodoshi(sinonimi) keltiriladi.

Sinkveyn texnologiyasini tuzish va undan foydalanish qoidasi. Bunda talabalar "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" faniga oid biror tushunchani tanlaydilar. Tushunchadagi asosiy kalit so'z harakatga keltirilib, uning ma'nodosh (sinonim) so'zi topiladi. Masalan, "strategiya", "jamiyat" ni kalit so'z sifatida tanlasak, u quyidagi qoida asosida bajariladi.

Kalit soʻzlar: qonun, jamiyat, strategiya



DARSDA KOMPYUTERLI OQITISH TEXNOLOGIYASINI QOʻLLASH

Kompyuterli oʻqitish vositalarini interfakil deb atash mumkin. Ular taʼlim oluvchilar va taʼlim beruvchilar harakatiga "javob berish", ular bilan dialog olib borish qobiliyatiga ega, aynan mana shu kompyuterli oʻqitish usulining asosiy xususiyatini tashkil qiladi. Kompyuter oʻquv jarayonining barcha bosqichlarida qoʻllanishi mumkin: yangi materialni tushuntirish (kirishda), mustahkamlash, takrorlash, bilim-malaka koʻnikmalarini nazorat qilish paytida va hokazo.

Bunda u ta'lim oluvchi uchun turli funksiyalarni bajaradi: o'rgatuvchi, ishchi instrumentini, o'qitish obyektni, hamkorlik qiluvchi jamoani, dars olish (o'yin) muhitini. Kompyuterning ta'lim beruvchi funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- o'quv axborotining manbai (ta'lim beruvchi);
- ko'rgazmali qurol (sifat jihatdan yangi darajada multimediya va telekommunikatsiyalarning imkoniyatlari bilan);
- individual axborot makoni;
- texnajor: tashhis va nazorat vositasi. Kompyuterning ishchi instrument funksiyalari:
 - matnlarni tayyorlash vositasi, ularni saqlash;
 - matnli tahrirchi;
 - grafo quruvchi. Grafik tahrirchi;
 - hisoblash mashinasi;
 - modellashtirish vositasi.

Axborot texnologiyalari yo'nalishlari bilan ta'lim vositalari – audio va video vositalarni qo'llash hisoblanadi. Shuning uchun kompyuter texnologiyalari bilan bir qatorda o'qitishning audio-video texnologiyalari ham faoliyat ko'rsatadi. Ularda ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarishning ko'proq qismi maxsus ishlab chiqarilgan audiovizual o'quv materiallari yordamida amalga oshiriladi.

Toifalash jadvali

Toifalar				
Qonunlar	Farmonlar	Qarorlar	VM qarori	Ijro etilishi

TESTLARDAN NAMUNA №4.

1.O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi qachon qabul qilindi?

- a).* 25.01.2018.
- b). 24.01.2018.
- c). 22.09.1994.
- d). 21.01.2017.

2. Ma‘muriy sud ishlari qaysi tilda yuritiladi(12-modda)?

- a). o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda;
- b).* o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda;
- c). o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida, rus tilida;
- d). muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda.

3. Birinchi instansiya bo‘yicha ma‘muriy ishlar qanday tartibda ko‘rib chiqiladi?

- a).*birinchi instansiya bo‘yicha ma‘muriy ishlar tuman (shahar) ma‘muriy sudlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlarida sudya tomonidan yakka tartibda ko‘riladi;
- b). birinchi instansiya bo‘yicha ma‘muriy ishlar tuman (shahar) ma‘muriy sudlarida, sudya tomonidan yakka tartibda ko‘riladi;
- c).qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlarida sudya tomonidan yakka tartibda ko‘riladi;
- d). birinchi instansiya bo‘yicha ma‘muriy ishlar tuman (shahar) ma‘muriy sudlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlarida sudya tomonidan kollegial tartibda ko‘riladi.

4. Ma‘muriy qamoqqa olish qanday holatlarda 30 sutkagacha belgilanishi mumkin?

- a).*favqulodda holat tartibi sharoitida, jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun;
- b).huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlariga bo‘ysunmaganligi uchun;
- c). sudning qonuniy talablarini bajarmaganligi uchun;
- d). jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun.

5.Ma'muriy qamoqqa olish chorasi kimlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas?

a). *homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga nisbatan;

b).homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga;

c).homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxslarga;

d). birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga.

5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

Reja:

1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari. “Har bir oila tadbirkor” tamoyilining ahamiyati.

2. Mamlakatda xususiy mulk huquqini himoya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda soliq va bojxona siyosatini takomillash-tirilishi.

Tayanch iboralar: xususiy mulk, iqtisodiyot, strategiya, biznes, tadbirkorlik, huquqni himoya qilish, kichik biznes, soliq, bojxona.

AMALIY MASHG‘ULOT TEXNOLOGIK XARITASI (Seminar mashg‘uloti 2 soat)

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqt – 2 soat</i>
<i>O‘quv mashg‘ulot shakli</i>	Kirish, informatsion-ma’ruza vizual usulda
<i>Ma’ruza rejasi:</i>	1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish 2. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish 3. O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi 4. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligini oshirish.
<i>O‘quv nazariy mashg‘ulot maqsadlari:</i>	Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish tushunchalarining qisqacha tasnifi. Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish - insoniy taraqqiyot uchun zaruriyat sifatida. Fuqarolik jamiyati sharoitida ijtimoiy tuzilmalar va ularning o‘ziga xos jihatlari. O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi jamiyat ijtimoiy tuzilmalarining tizimli va funksional xususiyatlari. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat ijtimoiy tuzilmalarining rivojlanishida Yangi tamoyillar. Davlat xizmatlarini

	ko'rsatish samaradorligini oshirish. Jamiyating ijtimoiy qatlamlari va ularning o'ziga xos manfaatlari, xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish.
<i>O'quv faoliyati natijalari</i>	
<i>O'qituvchi</i>	Talaba
• Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish ijtimoiy tuzilmalari to'g'risida ma'lumotlar berish. • Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat sotsial strukturalarining rivojlanishida yangi tamoyillarva ularning ahamiyatini yoritib berish; • Jamiyating ijtimoiy qatlamlari va ularning o'ziga xos manfaatlari, xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish. Davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish - insoniy taraqqiyot uchun zaruriyat sifatida atroflicha tushuntirib berish.	Jamiyatning ijtimoiy strukturasiga doir dastlabki talqinlar, "jamiyat", "ijtimoiy" va "tuzilma" tushunchalarining mohiyatini anglab yetadilar; Fuqarolik jamiyati sharoitida sotsial strukturalarga tasnif berish ijtimoiy tuzilmasi to'g'risidagi bilimlarni tahlil etishda unga doir kategoriyalar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lishadi. Shuningdek, G'arb mamlakatlarida bozor munosabatlarini sotsial birliklar determinanti sifatida talqin etadigan konsepsiyalar va uning natijalarini atroflicha o'rganadilar.
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Vizual ma'ruza, blis-so'rov, aqliy hujum, BBB, insert.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, lazerli proyektor, vizual materiallar.
<i>O'qitish shakli</i>	Keng qamrovli, jamoaviy, juftlikda ishlash.
<i>O'qitish sharoiti</i>	Guruhda ishlash uchun ajratilgan auditoriya.
<i>Baholash mezonlari</i>	Og'zaki nazorat, blis-so'rov, test

Seminar mashgulotlarida quyidagi slaydlardan foydalanish tavsiya etiladi

5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ko'zda tutilgan eng muhim chora-tadbirlar



Narx-navo barqarorligini ta'minlash bo'yicha choralar amalga oshiriladi:

asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik,



asosiy iste'mol tovarlarining transport xarajatlarini subsidiyalash



import tovarlarini olib kirishda raqobat sharoitini yaxshilash kabi tadbirlar ko'zda tutilmoqda



Budjet mablag'larini qanday sarflanayotgani yanada ochiqqlanadi



Vazirlik va idoralar budjetdan tashqari jamg'armalarning daromad va xarajatlari, davlat ulushiga ega bo'lgan tashkilotlar xaridlar, davlat subsidiya va grantlariga oid ma'lumotlarni o'z veb saytida e'lon qilib boradilar.



Ma'lumot bermagan tashkilotlar Hisob palatasi tomonidan jarimaga tortiladilar.



5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘zda tutilgan eng muhim chora-tadbirlar



Davlat qarzi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yanada ochiqqlanadi:

Ma’lumotlarni har chorak yakuni bo‘yicha Oliy Majlis palatalariga kiritib borish.



Moliya vazirligining veb-saytida e’lon qilib borish amaliyoti joriy etiladi.



Bank tizimini isloh qilish bo‘yicha rejalashtirilayotgan choralar:



tadbirkorlarga valutani bevosita bankning o‘zidan sotib olish uchun imkoniyat yaratiladi;



nobank kredit tashkilotlari tomonidan islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy baza yaratiladi;



banklarda ichki biznes protsesslarini avtomatlashtirish orqali inson resurslaridan samarali foydalanib, xodimlarni asosan mijozbay ishlarga yo‘naltiriladi.



5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

Energetika bozorini monopoliyadan chiqarish choralari ko‘riladi:




tabiiy gazni yuridik shaxslarga bozor tamoyillari asosida sotish mexanizmlarini joriy etish;

elektr energiyasi hisobini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;



suyultirilgan gazni bozor tamoyillari asosida sotish mexanizmlarini joriy etish;



40 mingdan ortiq transformatorni bosqichma-bosqich yangilash dasturini tasdiqlash ko‘zda tutilmoqda.



5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘zda tutilgan eng muhim chora-tadbirlar



Transport sohasini rivojlantirish va qulay infratuzilmani yaratish choralari ko‘riladi:

5 mingdan ortiq ta‘mirtalab ko‘priklarni ta‘mirlash;



eng yirik shaharlar va turistik markazlarda tezda kelib-ketish imkoniyatini beradigan, o‘zaro bog‘langan transport tarmog‘ini yaratish;



2 ta tezyurar poyezd harakatini yo‘lga qo‘yish – Buxoro-Urganch-Xiva temir yo‘llarini elektrlashtirish boshlanadi.



Aholi uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida:



yer osti va yer usti metro liniyalarini yaxlit tizim sifatida bir-biriga ulash;



2 ta yuqori tezlikda harakatlanuvchi Talgo-250 rusumli yo‘lovchi elektropoyezdini olib keish;





Metro uchun 4 ta yangi elektropoyezd xarid qilish rejalashtirilmoqda.



**5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA
LIBERALLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR
YO‘NALISHLARI**

	Mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish va ularni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha:		
Xorijga ketish uchun yoʻl-transport chiptasini xarid qilishda subsidiya berish, rivojlangan davlatlarga ketayotganlarga “ishchi-viza” ni xarajatlarini qoplab berish;			
	Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan va xorijiy til hamda kasblar boʻyicha malaka imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan fuqarolarni ragʻbatlantirish tizimini joriy qilish koʻzda tutilmoqda.		
Tadbirkorlikni rivojlantirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish choralari koʻriladi:			
Tadbirkorlik kodeksi loyihasi ishlab chiqiladi;		isteʼmolchilar huquqlari ustuvorligini taʼminlovchi tadbirkorlik subyektlari reytingi joriy qilinadi;	
			
tadbirkorlik va oʻzini oʻzi band qilish faoliyatini boshlamoqchi boʻlgan ishsiz fuqarolarga faoliyatini boshlash uchun 7 million soʻmgacha subsidiyalar berish boʻyicha normativ hujjat tasdiqlanadi.			
			

**5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA
LIBERALLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR
YO‘NALISHLARI**

 Aholi bandligi va real daromadlarini izchil amalga oshirish choralari ko‘riladi:		
ishsizlik nafaqasini mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 35,2 foizidan 100 foizigacha oshirish; 	ishsizlik nafaqasini tayinlash uchun kerak bo‘lgan hujjatlarni fuqarodan talab qilmasdan “Bandlik xizmati” axbort tizimi va “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy apparat kompleksi orqali aniqlash; 	70 ming nafar ishsiz fuqaroni 40 ta kasb-hunar bo‘yicha o‘qitish; 
Ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka o‘qitish; 	50 ming fuqaroni tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi uchun chet tillarga o‘qitish; 	
“Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” ga kirgan fuqarolarning o‘qish xarajatlarini Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi hisobidan, Yoshlar va ayollarning o‘qish xarajatlarini (1 mln. so‘m) Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tomonidan qoplash. 		

**5-MAVZU: IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA
LIBERALLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR
YO‘NALISHLARI**

**Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi
choralar ko‘riladi:**



-qishloq xo‘jaligida sifatli agroxizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etiladigan yer maydonlarini ko‘paytirish hamda suvni iqtisod qilish texnologiyalarini joriy etish;



kooperatsiyalar tomonidan sifatli va eksportbop mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini oshirish orqali ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash va eksport qilish;



har bir hududda sug‘oriladigan asosiy maydonlarning 5 foiz va sug‘oriladigan takroriy maydonlarning 30 foiz qismida 0,1-1 gektarlik kichik uchastkalardan iborat oilaviy va boshqa turdagi xo‘jaliklar kooperatsiyalarini tashkil qilish.



qishloq aholisi va yoshlarni doimiy ish bilan ta‘minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta‘minlangan oilalarni “Temir daftar” dan chiqarish nazarda tutilmoqda.



Talabalarga beriladigan nazorat savollari:

1. Sizningcha “Yangilanayotgan O‘zbekiston”da iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, investitsiyalar va Innovatsiyon g‘oyalar hamda ularni rag‘batlantirilishining qanday omillari mavjud?
2. “Har bir oila tadbirkor” tamoyilining ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan bugungi kunda xususiy mulk huquqini himoya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni himoya qilish borasida qanday islohotlar amalga oshiriloqda ?
4. Soliq va bojxona siyosatini takomillashtirish va optimallashtirilishi nimalarda aks etmoqda?.

TESTLARDAN NAMUNA №5.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qachon e’lon qilindi?

- a). * 2020-yil 19-martda;
- b). 2020-yil 25-martda;
- c). 2020-yil 15-martda;
- d). 2020-yil 10-martda.

2. Mamlakatda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish borasidagi Davlat dasturi qanday nomlanadi?

- a). «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi;
- b). «Yoshlar kovorking markazlari»;
- c). * «Har bir oila – tadbirkor»;
- d). «Klaster tizimini joriy etamiz».

3. Harakatlar strategiyasining nechanchi yo‘nalishi iqtisodiyotni erkinlashtirish va liberallashtirish, deb nomlanadi?

- a). Birinchi;
- b). Ikkinchi;
- c). *Uchinchi;
- d). To‘rtinchi.

4. Qachon O‘zbekistonda «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili» deb e’lon qilindi?

- a). 2019-yil;

- b). 2017-yil;
- c). 2020-yil;
- d). * 2018-yil.

5. 2020-yil Prezident Murojaatnomada qurilish sohasini innovatsion rivojlantirish nechanchi yilgacha deb belgilangan?

- a). 2025
- b). * 2030
- c). 2021
- d). 2035

6-MAVZU: IJTIMOIIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

Reja:

1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil amalga oshirilishi, aholini ijtimoiy himoya qilish va xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari.

2. Ta'lim, ilm-fan sohalaridagi izchil islohotlar. Yoshlar kelajagimiz davlat dasturining amalga oshirilishi.

Tayanch so'zlar: aholi, bandlik, arzon uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma, yurt obodonligi, ta'lim va fan, yoshlar.

Ish jara- yonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
1-bosqich. O'quv mashg'uloti ga kirish. 15 daqiqa.	1. Amaliy mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'qitish natijalari e'lon qilinadi. 2. Talabalarga uyga vazifa qilib berilgan fuqarolik jamiyat to'g'risida iqtisodiy islohotlarini qiyosiy tahlil bo'yicha konspektlari tekshiriladi, baholanadi. 3. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. 4. Kompyuter proyektor va doskadan foydalanib jadvallar, chizmalar orqali mashg'ulot rejasi va asosiy tushunchalarni sharhlab beradi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar. O'z fikrlarini guruhlariga ajralgan holda jamoa bo'lib bildiradilar.
2-bosqich. Asosiy (informat- sion bosqich). 50 daqiqa.	- Venn diagrammasida bor bo'lgan materiallarni muhokama qilishni tashkillashtiradi, diqqatni keys bilan ishlash qoidalariga, muammoni yechish algoritmiga va vazifani aniqlashtirishga qaratadi; - Mustaqil ravishda uyda yozib kelingan vaziyat tahlilini o'tkazishni taklif qiladi; - Talabalarni 2 ta guruhga ajratadi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni "Muammoli vaziyat"	2.1. Talabalar ma'ruzachi tomonidan berilgan savollarni diqqat bilan tinglab, o'z nuqtayi nazarlarini erkin fikr orqali bayon etadi. 2.2. Talabalar bahs munozaraga kirishadi. Bu uslub guruhlariga bo'lingan holda amalga oshiriladi.

	uslubidan foydalanilgan holda tarqatadi; • Kichik guruhlarda keys bilan yakka tartibda bajarilgan ishlar natijalarini muhokama qilishni tashkillashtiradi. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi; • Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog‘ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishda yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi; • Talabalarning fikrlarini umumlash-tirib bo‘lgach, har bir guruhga “Baliq skeleti” texnikasidan foydalanilgan holda ijtimoiy sahaga oid diagrammalar ko‘rsatiladi; • “Adolatli jamiyat to‘g‘risidagi Sharq va G‘arb mutaffakirlarining fikrlari?” savolini yechish topshiriladi. • Talabalarning taqdimotda ko‘r-satilgan fikrlari umumlash-tiriladi.	2.3.Jamoalarga ajratilgan holda guruh sardori saylab olinadi. Jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasi hosil qilinadi. Talabalar o‘z fikrlarini izohlaydi diagrammani to‘ldiradi. 2.4.Organayzerni to‘ldiradi. 2.5.Jadvalni to‘ldiradi.
3-bosqich. yakunlovchi bosqich. 15 daqiqa	1. Mavzuda qo‘yilgan savollar va ularning yoritilganiga o‘qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) aytilmagan tomonlari ustida ishlash lozimligini aytadi. 2. Guruhlarga o‘zaro baholash natijalarini e‘lon qiladi, amaliy natijalar baholanadi. 3. Talabalarga seminar mavzusi yuzasida mustaqil ta’lim mashg‘uloti uyga vazifa qilib beriladi.	3.1.Talabalar tinlaydilar, aniqlaydilar. Uyga vazifani yozib oladilar. O‘UM ga qarang.

IJTIMOIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH



Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘zda tutilayotgan asosiy chora-tadbirlar

Yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari, startaplar va g‘oyalarni yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozli kreditlar ajratish. Ishlab chiqariladigan Prezident qarori loyihasida Yoshlarning biznes loyihalarini kreditlash mexanizmlari yaratiladi hamda ularni kasb-hunarga o‘qitish choralari nazarda tutiladi.



Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondini tashkil etish.



Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi maqomi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, vazifalari, moliyalashtirish manbalari, jamoatchilik ishtiroki mexanizmlarini nazarda tutiladi.

“Bolalar Ombudsmani to‘g‘risida”gi qonun lyihasini ishlab chiqish.



Loyihada mamlakatimizda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishda yangi tuzilma faoliyatini tashkil etish nazarda tutiladi.

BMT shafeligida “Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim” global forumini tashkil etish va o‘tkazish;



Yoshlar huquqlariga bag‘ishlangan Butunjahon Yoshlar anjumanini tashkil etish va o‘tkazish.

IJTIMOIIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH



Yoshlarning xalqaro “IT” sertifikatlarini olish xarajatlarining 50 foizigacha bo‘lgan qismini budjetdan qoplab berish tartibini joriy etish.

Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejasida:

yoshlarning xalqaro “IT” sertifikatlarini olish xarajatlarining 50 foizigacha bo‘lgan qismini budjetdan qoplab berish tartibi:



yosh mutaxassislarni o‘qitish va ularning xalqaro IT sertifikatlarini olish uchun 50 foizgacha xarajatlarini moliyalashtirish bo‘yicha ekspert kengashi tuzish;

yosh mutaxassislarni o‘qitish va ularning xalqaro IT sertifikatlarini olish uchun 50 foizgacha xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlatish nazarda tutiladi.



yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari, startap va g‘oyalarini yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozli kreditlarni ajratish.

Tayyorlanadigan Prezident qarori loyihasida:



yoshlarning biznes loyihalarini kreditlash mexanizmlari yaratish hamda ularni kasb-hunarga o‘qitish choralari nazarda tutiladi.

Yoshlar huquqlariga bag‘ishlangan Butunjahon Yoshlar anjumanini tashkil etish va o‘tkazish.



IJTIMOIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

	“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida Yoshlarni dasturlash tillarini o‘zlashtirishga qiziqtirish orqali ularni ish bilan ta’minlash tizimini yo‘lga qo‘yish.
	Xalqaro ta’lim dasturlari(imtihonlar) bo‘yicha eng yuqori ball to‘plagan iqtidorli yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini to‘liq qoplab berish tartibini yo‘lga qo‘yish. Ishlab chiqariladigan normativ-huquqiy hujjat loyihasida xalqaro ta’lim dasturlari (imtihonlar) bo‘yicha tartibni nazarda tutadi.
	“Yoshlar 1+1” dasturi doirasida uyushmagan va ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish.
Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar dasturida:	
	Savdo-sanoat palatasining hududiy o‘quv markazlarida uyushmagan va ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitishni tashkil etish;
	– “Hunarli kishi xor bo‘lmas” g‘oyasi asosida usta hunarmandlar qo‘lida ishsiz yurgan yoshlarga kasb-hunar o‘rgatish maqsadida hududlarda “Ustoz– shogird” an‘anasini yangi tizimda joriy etish;
	– “Ustoz – shogird” an‘anasiga jalb etiladigan hunarmand ustalarni Bandlikka ko‘maklashtirish jamg‘armasidan moddiy rag‘batlantirish tizimini joriy etish nazarda tutiladi.
	– “Har bir tadbirkor- yoshlarga madadkor” tamoyili asosida ko‘ngilli tadbirkorlarni jalb etgan holda 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshlarni biriktirish.
	Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar dasturida ko‘ngilli tadbirkorlarni jalb etgan holda 500 mingdan ortiq yosh uchun ish joyi yaratish nazarda tutiladi.
	Yoshlar, ayniqsa, ish va o‘qish bilan band bo‘lmagan yoshlar mas’ullar o‘rtasida xizmat qiluvchi “Yoshlar murojaati” elektron platformasini yaratish.
	Yosh oilalarni arzon uy-joy bilan ta’minlash maqsadida 2021-2023-yillarda yoshlar uylari qurish dasturini amalga oshirish.

IJTIMOIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

	Hududlarda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish, soddalashtirilgan tartibda yoshlarning ilmiy va startap loyihalarini moliyalashtirish maqsadida ilmiy dasturni amalga oshirish.
Tayyorlanadigan Vazirlar Mahkamasi qaror loyihasida:	
	yoshlar uchun e'lon qilinadigan startap loyihalari tanlovlari talablarining soddalashtirilgan tizimini ishlab chiqish; 
	iqtidorli yoshlar o'rtasida "Akademik haraktchanlik" dasturi va "Bo'lajak olim" tanlovini tashkil qilish;
	stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktoranturaga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich oshirish; 
	iqtidorli yoshlarning ilmiy g'oyalarini rag'batlantirish, ularning xorijiy universitetlar va ilmiy markazlarga qisqa muddatli stajirovkalarini tashkil etish;
	Yoshlarga ilmiy tashkilotlar, oliy ta'lim muassasalari, shuningdek vazirlik, idora va tashkilotlar huzuridagi ilmiy tuzilmalardagi zamonaviy ilmiy asbob-uskunalaridan bepul foydalanish huquqini nazarda tutadi. 
	O'zbekiston talabalar assotsiatsiyasini tashkil etish rejalashtirilmoqda.
	Markaziy Osiyo xattotlik san'ati an'alarini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida Islom sivilizatsiya markazi joylashgan Hazrati Imom majmuasi hududida "Kitobot ilmi maktabi"ni tashkil etish. 
	– Yoshlarning xorijiy tilalarni o'rganishlari uchun yanada kengroq imkoniyat yaratish maqsadida bepul til o'rganish elektron platformasini yaratish. Bunda yaratilishi kutilayotgan elektron platformada yoshlarning bepul xorijiy tillarni o'rganishlari uchun yanada kengroq imkoniyat yaratish nazarda tutiladi.

IJTIMOIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

	Respublika aholisini koronavirusga qarshi profilaktik emlash ishlarini tashkil etish.	
	Hududlarda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash maqsadida respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlari va ularning filiallari o'rtasida telemeditsina tizimini ommalashtirish;	
	6-23 oylik bolalar uchun uy sharoitida tayyorlangan ovqatlarni boyitish maqsadida mironutrient kukuni bilan, 6 oylikdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni "A" vitamini bilan va 2-10 yoshdagi bolalar gelmintoz-profilaktikasi bo'yicha maxsus preparatlar bilan bepul ta'minlash;	
	Neyrosensor karlik yoki zaif eshitadigan bolalarda koxlear implantatsiyalardan foydalangan holda operatsiyalar o'tkazish. Bunda sense-nevral eshitish pastligining III-IV darajasi tashxisi bilan nazorat bo'lgan 200 dan ortiq bolalarda koxlear implantatsiya operatsiyalarini o'tkazish nazarda tutiladi.	
	Birlamchi bo'g'inda umumiy amaliyot shifokori o'rnida oilaviy shifokor va unga 5 ta yordamchi-hamshiradan iborat tibbiy brigadalari tashkil qilish.	
	Respublikada 5 yoshgacha bolalar, tug'ish yoshidagi va homilador ayollar, nogironligi bo'lganlar, qon-tomir, onkologik, endokrin kabi kasalliklarga moyilligi bo'lgan fuqarolar bilan ishlashning alohida tizimi joriy etish.	
Ishlab chiqiladigan amaliy chora-tadbirlarda:		
	Hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan, kasallik turlari, fuqarolarning yoshi, kasallanish darajasi va boshqa omillardan kelib chiqib xavf guruhlarini aniqlash mezonlarini belgilash;	
	Joriy qilinayotgan yangi tibbiy profilaktika va potranaj tizimi bo'yicha tibbiyot xodimlarini o'qitishga ko'maklashish;	
	aholini xavfli guruhlariga ajratish, ularning salomatligini davriy kuzatib borish;	
	maqsadli skrinig va maqsadli potranaj bilan qamrab olinadigan fuqarolarni ko'riklardan muntazam o'tkazib borish va ularga nisbatan da'vo choralari ko'rish nazarda tutiladi.	

IJTIMOIIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH



Kelgusi 3 yilda 315 ta oilaviy shifokor punkti va 85 ta oilaviy poliklinika faoliyatini tashkil etish. Bunda 100 oilaviy shifokor punktlari, 17 ta qishloqlarda joylashgan oilaviy poliklinikalar, 7 ta shaharlarda joylashgan oilaviy poliklinikalarni tashkil etish nazarda tutiladi.

2021-yildan boshlab olis va chekka hududlarda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalari shifokorlari uchun “Qishloq shifokori” dasturini joriy etish.



Ishlab chiqiladigan amaliy chora-tadbirlarda:



tibbiyot oliy o‘quv yurtini oxirgi 3 yil ichida tamomlagan va boshqa hududda yashovchi shifokorlar olis va chekka hududlarda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarga ishga qabul qilinganda, ularga kamida 3 yil ishlab berish sharti bilan 30 million so‘m miqdorida bir martalik pul mablag‘larini berish;

uy-joyi bo‘lmaganlarga 3 yil davomida xizmat uy-joylari yoki bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik ijara to‘lovlarini Davlat budjetidan kompensatsiya qilish nazarda tutiladi.



“Hamshiralik ishi” bilan mustaqil shug‘ullanish uchun ruxsat berish. Bunda “Hamshiralik ishi” bilan mustaqil shug‘ullanish uchun o‘rta tibbiyot xodimlariga yuridik shaxs yoki yakka tadbirkor sifatida tibbiy faoliyatga litsenziya berish tartibini belgilash.

Olis va chekka hududlarda birlamchi va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsaish va ehtiyojmand aholi uchun skrining va davolash tadbirlariga xususiy shifoxonalarni jalb etish va ularga subsudiya ajratish.



IJTIMOIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

Onkologiya va onko-gematalogiya kasalligidan aziyat chekayotgan fuqarolarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish.

Tayyorlanadigan amaliy chora-tadbirlar rejasida:



onkologiya va onko-gematalogiya kasalligi bilan og'rikan bemorlarni zarur dori vositalari bilan ta'minlanishini yanada yaxshilash;

oq qon va og'ir gematologik kasallikdan aziyat chekayotgan fuqarolarga autologik o'zak hujayralari transplantatsiya amaliyotini o'tkazish uchun dori vositalari, tibbiy sarflov vositalari, yuqori texnologik tashxislash uchun reagentlar va asbob-uskunalarni xarid qilish;



transplantatsiya oldi kimyoterapiya kurslari, o'zak hujayralari yig'ib olish, ularni saqlash, transplantatsiya amaliyoti va transplantatsiyadan keyingi nazorat bilan qamrab olish (reabilitatsiya) nazarda tutiladi.

Respublikadagi gemodializ muolajasiga muhtoj bemorlarni tibbiy xizmat bilan bepul qamrab olish. Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejasida:

gemodializ muolajasiga muhtoj bemorlarni yillik 20 foizga oshishini hisobga olgan holda 2021-yilda 5 mingdan ortiq bemorni bepul gemodializ xizmati bilan qamrab olish;



xizmat sifatini yanada yaxshilash maqsadida reja bo'yicha 2021-yilda 100 ta sun'iy buyrak apparati, 33 ta suv tozalash moslamasi, 44 ta mikser, 665280 komplekt dializator va unga mos ravishda sarflov vositalari xarid qilish nazarda tutiladi.

Tuman va shahar tibbiyot birlashmalari negizida 35 ta tumanlararo qo'shma shikastlanishlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlarini tashkil etish.

Ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjat loyihasida:



qo'shma shikastlanishlar va o'tkir qon-tomir kasalliklari markazlarini 2021-2022-yillar davomida bosqichma-bosqich tashkil etish;

yurak-qon tomir (miokad infarkti), miya-qon tomir kasalliklari (insult) qo'shma shikastlanishlardan kasallanish, o'lim va nogironlikni kamaytirish uchun, tibbiy yordam bosqichlarida uzluksizlikni yaxshilash, "oltin soat"ni hisobga olgan holda bemorlarning qo'shni hududlardan o'z vaqtida kelishini tashkil qilish;



yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni qishloq aholisiga yaqinlashtirishga imkon yaratish, shoshilinch tibbiy yordamni o'z vaqtida va mukammal ravishda ko'rsatish nazarda tutiladi.

IJTIMOIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

Respublika bo'yicha 3-4 yoshdagi barcha bolalarni poliomelit kaslligiga va 12-13-yoshdagi barcha o'smir qizlarni bachadon bo'yni saratoniga qarshi emlash.

Ishlab chiqiladigan amaliy chora-tadbirlar dasturida:



Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida buyrak transplantatsiyasi amaliyotini o'tkazishni yo'lga qo'yish;

Boshqariluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash maqsadlari uchun 13 turdagi vaktsina bilan ta'minlash;



JSST mablag'lari jalb etilib, 2,5 mln. doza poliomelitga qarshi faolligi kamaytirilgan vaksina olish va respublikada tozalash milliy emlash kunlarini (emlash bilan qamrab olinmagan aholi qatlamini qamrab olish) o'tkazish;

bolalar o'rtasida shol kasalligi bilan kasallanish holatlari va bu bilan bog'liq og'ir asoratlarning oldini olish;



GAVI xalqaro tashkiloti mablag'lari doirasida respublika bo'yicha 12-4 yoshdagi barcha o'smir qizlarni odam papilomo virusiga qarshi emlash;

Ayollarda uchraydigan bachadon bo'yni raki bilan kasllanish hamda bu bilan bog'liq o'lim holatlari sonini keskin kamaytirish nazarda tutiladi.



IJTIMOIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

	Ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lamini yanada kengaytirish.
Ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjat loyihasida: chin yetim yoshlarni uy-joy bilan ta'minlash;	
	boshpanasiz qolgan, og'ir turmush sharoitida tushib qolgan oilalar va shaxslarni vaqtinchalik yoki umrbod mulk huquqi berilmagan holda joylashtirish uchun mahalliy hokimliklar tomonidan uy-joylarni sotib olish tartibini joriy etish nazarda tutiladi;
Yangi ijtimoiy soha obyektlarini qurish va mavjudlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash.	
Ishlab chiqiladigan amaliy chora-tadbirlarda:	
	31 ta yangi maktab qurish va 320 ta maktabni ta'mirlash;
Andijon, Nurafshon, Guliston, Navoiy va Termiz shaharlarida Prezident maktablarini qurish;	
	16 ta oliy ta'lim muassasalari binolarini yangidan qurish va 19 tasini ta'mirlash;
22 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari binosini yangidan qilish va 203 tasini ta'mirlash;	
	24 ta sog'liqni saqlash obyektlarini yangidan qurish va 99 tasini ta'mirlash;
23 ta sport obyektlarini yangidan qurish va	
	34 tasini ta'mirlash;
11 ta madaniyat va san'at obyektini yangidan qurish va 7 tasini rekonstruktsiya qilish nazarda tutiladi.	

Aholini ommaviy sport turlariga keng jalb qilish orqali 2021-yilda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar qamrovini hozirgi 19 foizdan 25 foizga yetkazish.

Aholi salomatligini mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan samarali jismoniy tarbiya tizimini yaratish hamda hayotga tatbiq etish maqsadida “Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlari o‘tkazish va rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish.



Sportning yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol va “Workout” (mahalla va ko‘cha fitnesi) turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish maqsadida aholi punlarida, har bir mahalla va tuman(shahar) da jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishga shart-sharoitlar yaratish.



Jismoniy tarbiya va sport muassasalari hamda 16 mingta maktabgacha ta’lim va umumta’lim muassasalarini sport jihozlari bilan ta’minlash;



Tokio shahri (Yaponiya)da o‘tkazilayotgan Olimpiya va Parolimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rish va unda munosib ishtirok etish uchun zarur choralarni ko‘rish;



2025-yilda O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasidagi IV yozgi Osiyo o‘yinlarini o‘tkazishga puxta tayyorgarlik ko‘rish.



2021-yil yakuni bilan bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 65 foizga yetkazish.

Davlat investitsiyalar dasturi doirasida 225 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari, jumladan 22 ta yangi qurilish va 203 ta obyektlarni rekonsruksiya qilish hisobiga yangi o'rinlarni yaratish.



davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faoliyat yuritmayotgan qurilishlarni jonlantirish hisobiga qo'shimcha o'rinlarni yaratish.



maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektorni jalb etish orqali nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish nazarda tutiladi.



maktabga tayyorlash tizimi bilan 560 ming nafar 6 yoshli bolalarni yoki ularning 82 foizini qamrab olish.



Ishlab chiqiladigan amaliy chora-tadbirlar dasturida:

Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlarini tashkil etish;



to'liq kunlik tayyorlov guruhlarini tashkil etish;




qisqa muddatli tayyorlov guruhlarini tashkil etish orqali qamrovni oshirish nazarda tutiladi.



bolaning ilk rivojlanishiga xizmat qiladigan maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini yanada kengaytirish;



YUNISEF hamda Jahon banki bilan hamkorlikda imkoniyati cheklangan bolalra uchun maktabgacha ta'lini uyda berish modelini joriy qilish;



maktabgacha ta'lim tizimida xususiy sektor mablag'larini ko'proq jalb qilish va budjetdan subsidiya berish hisobidan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olingan bolalar ulushini 25 foizgacha yetkazish.



IJTIMOIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

Umumiy oʻrta taʼlimning Milliy oʻquv dasturini bosqichma-bosqich joriy etish.

Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejasida:



milliy oʻquv dasturi loyhasini xalqaro tajribalardan kelib chiqib, xalqaro ekspertchi va amaliyotchi oʻqituvchilarning takliflari asosida takomillashtirish;

milliy oʻquv dasturiga mos ravishda yangi avlod darsliklarini oʻqituvchining metodik qoʻllanmasi, oʻquvchilarning mashq daftari va multimedia loyihasi bilan birga kompleks tarzda yaratish va nashr etish;



Oʻqituvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga oʻz bilim va koʻnikmalaridan amaliyotda foydalanishni oʻrgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Fizika fanini ilm-fan sohasining ustuvor yoʻnalishi sifatida rivojlantirish boʻyicha ilmiy ishlanmalar koʻlamini oshirish va jahonning yetakchi ilmiy tashkilotlariga Yosh olimlarni qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish, stajyor-tadqiqotchilik dokorantura uchun maqsadli kvotalar ajratish.



Yagona “Elektron taʼlim” tarmogʻini joriy qilish.

Ishlab chiqiladigan amaliy chora-tadbirlar dasturida:

Optik tolali yuqori tezlikdagi internet jahon axborot tarmogʻi liniyalari olib borilgan umumtaʼlim muassasalarining telekommunikatsiya infratuzilmasini (Wi-Fi va ichki lokal tarmoqni) yaratish;



3200 ta umumtaʼlim maktablarini qamrab olish va kelgusi yillarda davom ettirish;

yagona “Elektron taʼlim” tarmogʻini yaratish, joriy qilish va uni boshqarish;



Kompyuter uskunolari va yagona “Elektron taʼlim” tarmogʻini texnik qoʻllab-quvvatlash;

elektron kontentni ishlab chiqarish va ularni yangilab borish;



rahbar va pedagog xodimlarning AKT boʻyicha savodxonligini oshirish hamda sertifikatlash tizimini joriy etish nazarda tutiladi.

IJTIMOIIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

	Ta'lim sifati past maktablarda ta'lim sifatini oshirish va ijobiy tajribani keng tarqatish maqsadida pedagog-o'qituvchilarni muddatli shartnoma asosida boshqa tuman va viloyatlarga mehnat faoliyatini olib borishi uchun yuborish.
Tayyorlanadigan Vazirlar Mahkamasi qaror loyihasida:	
Ta'lim sifati past maktablarni aniqlash mezonlarini ishlab chiqish	
	jalb qilinadigan o'qituvchi-pedagoglar uchun talablarni ishlab chiqish;
boshqa tumandagi maktabga borib dars beradigan o'qituvchilar maoshini 50 foiz, boshqa viloyatga borib dars beradigan o'qituvchilar maoshiga – 100 foiz ustama haq to'lash tartibini belgilash nazarda tutiladi.	
Alohida e'tiboga muhtoj 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim olishi, aniq bir kasbni egallashi uchun ko'maklashish.	
Oliy ta'limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish.	
Tayyorlanadigan Prezident qaror loyihasida:	
	2021/2022 o'quv yili uchun o'qishga qabul qilishda davlat granti asosidagi davlat byurmasi parametrlarini 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan 25 foizga oshirilgan holda belgilash;
2021/2022 o'quv yili uchun qabul parametrlarini shakllantirishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun alohida davlat granti asosidagi qabul ko'rsatgichlarini 2 barobarga ko'paytirish (2 mingtaga yetkazish), akademik ta'tilga chiqqan kunduzgi bo'lim talabalariga masofaviy o'qishni uzviy davom ettirish me'yorlarini joriy etish;	
	(2mingtaga yetkazish), akademik ta'tilga chiqqan kunduzgi bo'lim talabalariga masofaviy o'qishni uzviy davom ettirish me'yorlarini joriy etish;
2021/2022 - o'quv yili uchun qabul parametrlarini shakllantirishda ehtiyoj yuqori bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha kadrlarni tayyorlashni nazarda tutuvchi davlat granti parametrlarini kiritish hamda mazkur buyurtmaga asosan xususiy oliy ta'lim muassasalari qabul ko'rsatgichlarini shakllantirish nazarda tutiladi.	

IJTIMOIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH


	Oliy ta'limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish, jumladan, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga ajratilgan davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlarini kamida 25 foizga oshirish;
<i>Tayyorlanadigan Vazirlar Mahkamasi qaror loyihasida:</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talaba-qizlar o'qishi uchun shart-sharoitlarni kengaytirish, ularni qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga yetkazish;	
	2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident grantini joriy etish;
Magistratura va doktoranturada o'qiyotgan iqtidorli yoshlarni rag'batlatirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi kvotalari sonini kamida ikki barobarga oshirish hamda O'zbekistondagi xorijiy va qo'shma oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun Prezident va davlat stipendiyalarini joriy etish.	
	Oliy ta'lim muassasasida ikki va undan ortiq farzandi shartnoma asosida o'qiyotgan oilalarga imtiyozli ta'lim krediti berish tartibini joriy etish;
Nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirish;	
	Iqtidorli yoshlar va ilmiy izlanuvchilar uchun oliy ta'lim muassasalararo faoliyat yuritadigan innovatsion o'quv-ilmiy markaz tashkil etish;
Fizika bo'yicha o'quvchilar o'rtasida Ahmad Farg'oniy nomidagi xalqaro fan olimpiadasini tashkil etish.	

Darsda Venn Diagrammasi metodidan foydalanish

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.



Namuna: MBBT “Blis-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. Shundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi. «MBBTdan foydalanish darajasi» ketma-ketligini joylashtiring.

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
MS Access					
DataBase					
Oracle MS					
SQL Server					
SQLite					
MySQL					

TESTLARDAN NAMUNA №6

1. 2018-yilda «Obod qishloq» dasturini amalga oshirishga qancha mablag' ajratilgan?

- a) 2 500,0 milliard so'm;
- b) 1 856,5 milliard so'm;
- c) *3 040,8 milliard so'm;
- d) 4 052,3 milliard so'm.

2. «El-yurt umidi» jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» Prezident farmoni qachon qabul qilindi?

- a) *2018-yil 25-sentabrda;
- b) 2017-yil 7-fevralda;
- c) 2016-yil 4-oktabrda;
- d) 2018-yil 28-dekabrda;

3. Qachondan boshlab barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'лана boshlandi?

- a). 2018-yil 5-apreldan boshlab;
- b). *2019-yil 1-yanvardan boshlab;
- c). 2019-yil 1-iyundan boshlab;
- d). 2017-yil 1-yanvardan boshlab.

4. Farzandlarimizni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2019-yil davomida 38% dan necha foizga ko'tarilgan edi?

- a) *52% ga;
- b) 51% ga;
- c) 50% ga;
- d) 48% ga.

5. Yurtimizda birinchi marta Maktabgacha ta'lim vazirligi qachon tashkil etildi.

- a) *2017-yil 30-sentabr;
- b) 2018-yil 30-sentabr;
- c) 2019-yil 30-sentabr;
- d) Bunday vazirlik mavjud emas.

7-MAVZU. XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suverineteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish.


2. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik masalalari. O‘zbekiston Respublikasining o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosati.

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy hayot, suverinitet, xavfsizlik, totuvlik, diniy bagrikenglik, ichki va tashqi siyosat, manfaatli hamkorlik.

AMALIY MASHG‘ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	<i>o‘qituvchi</i>	<i>talaba</i>
1-bosqich. O‘quv mashg‘uloti-ga kirish. 15 daqiqa.	5. Amaliy mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va o‘qitish natijalari e‘lon qilinadi. 6. Talabalarga uyga vazifa qilib berilgan fuqarolik jamiyat to‘g‘risida iqtisodiy islohotlarini qiyosiy tahlil bo‘yicha konspektlari tekshiriladi, baholanadi. 7. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va baholash mezonlarini e‘lon qiladi 8. Kompyuter proyektor va doskadan foydalanib jadvallar, chizmalar orqali mashg‘ulot rejasi va asosiy tushunchalarni sharhlab beradi.	1.2. Diqqat bilan tinglaydilar. O‘z fikrlarini guruhlariga ajralgan holda jamoa bo‘lib bildiradilar.
2-bosqich. Asosiy (informatsion bosqich). 50 daqiqa.	- Venn diagrammasida bor bo‘lgan materiallarni muhokama qilishni tashkillashtiradi, diqqatni keys bilan ishlash qoidalariga, muammoni yechish algoritmgiga va vazifani aniqlashtirishga qaratadi; - Mustaqil ravishda uyda yozib kelingan vaziyat tahlilini o‘tkazishni taklif qiladi;	2.1.Talabalar ma‘ruzachi tomonidan berilgan savollarni diqqat bilan tinglab, o‘z nuqtai nazarlarini erkin fikr orqali bayon etadi. 2.2.Talabalar bahs munozaraga kirishadi. Bu uslub guruhlariga


	• Talabalarni 2 ta guruhga ajratadi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni "Muammoli vaziyat" uslubidan foydalanilgan holda tarqatadi; • Kichik guruhlarda keys bilan yakka tartibda bajarilgan ishlar natijalarini muhokama qilishni tashkillashtiradi. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi; • Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi; • Talabalarining fikrlarini umumlashtirib bo'lgach, har bir guruhga "Baliq skeleti" texnikasidan foydalanilgan holda • "Adolatli jamiyat to'g'risidagi qarashlaringizni?" savolini yechish topshiriladi. • Talabalarining taqdimotda ko'rsatilgan fikrlarini umumlashtiradi	bo'lingan holda amalga oshiriladi. 2.3.Jamoalarga ajratilgan holda guruh sardori saylab olinadi. Jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi hosil qilinadi. Talabalar o'z fikrlarini izohlaydi diagrammani to'ldiradi. 2.4.Organayzerni to'ldiradi. 2.5.Jadvalni to'ldiradi.
3-bosqich. yakunlovchi bosqich. 15 daqiqa	4. Mavzuda qo'yilgan savollar va ularning yoritilganiga o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) aytilmagan tomonlari ustida ishlash lozimligini aytadi. 5. Guruhlarga o'zaro baholash natijalarini e'lon qiladi, amaliy natijalar baholanadi. 6. Talabalarga seminar mavzusi yuzasida mustaqil ta'lim mashg'uloti uyga vazifa qilib beriladi.	3.1.Talabalar tinlaydilar, aniqlaydilar. Uyga vazifani yozib oladilar. O'UM ga qarang.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, shuningdek, vazmin, o‘zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘zda tutilayotgan eng muhim chora-tadbirlar	
O‘zbekiston Respublikasining “Favquloddagi holat to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilish. Qonun loyihasida: 	Yong‘in xavfsizligini ta’minlash tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan Prezident qarori loyihasini ishlab chiqish. Loyihada: 
O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan favqulodda holat sohasidagi hamkorligi davlat organlari tomonidan xalqaro shartnomlar va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish: 	qishloq aholisi va yoshlarni doimiy ish bilan ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan oilalarni “Temir daftar” dan chiqarish nazarda tutilmoqda. 
favqulodda holatni joriy etishda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalar, favqulodda holatni joriy etish asoslari va tartibi: 	yong‘in xavfsizligini ta’minlashning yangi tizimini joriy etish, sohaning moddiy-texnik bazasini va kadrlar salohiyatini tubdan mustahkamlash; 
aholi xonadonlarini metan, propan va boshqa is gazini barvaqt aniqlaydigan, xabar beradigan va gazni tarmoqdan klapan orqali uzib qo‘yadigan gazoanalizatorlar bilan ta’minlashni tashkil etish; 	yangi turar joy majmualari qurilgan, ma’muriy markazdan uzoqda joylashgan hamda yong‘inlarni tezkor bartaraf etish imkoniyati cheklangan hududlarda qo‘shimcha ajratiladigan shtat birliklari hisobiga yong‘in-qutqaruv qismlari (postlari) ni tashkil etish; 

yong'in xavfsizligini ta'minlash tizimining samaradorligini yanada oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash; 	yong'in-qutqaruv sportini rivojlantirish va ommalashtirish nazarda tutiladi. 
---	--

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, shuningdek, vazmin, o'zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ko'zda tutilayotgan eng muhim chora-tadbirlar

Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) bilan hamkorlikni kengaytirish ishlab chiqiladigan chora-tadbirlari to'g'risida:

Xalqaro migratsiya tashkiloti Bosh direktorining O'zbekistonga tashrifini tashkillashtirish; 	O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi qonunchiligini takomillashtirish Tayyorlanadigan O'zbekiston Respublikasi qonun loyihasida: 
 Xalqaro migratsiya tashkiloti Bosh direktorining O'zbekistonga tashrifini tashkillashtirish;	
2022-2023-yillarda hamkorlik dasturi imzolanishi tashkil qilish; 	 “Shaxsga doir ma'lumotlar” to'g'risidagi Qonunda shaxsiy ma'lumotlarni rasm, audio va videoyozuv ko'rinishida olinishi, tarqatilishi (OAVning har qanday turida, ommaga ma'lum bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday shaklda), shaxsni ogohlantirishsiz amalga oshirishni taqiqlash bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;


 2030- yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirish.	Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga fuqarolarning shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlarni rasm, audio va videoyozuv ko'rinishida egallanishi, tarqatishi va saqlanishi bilan bog'liq talablarni buzganlik uchun javobgarlik masalasini belgilash bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda.
Toshkentda Xalqaro migratsiya tashkiloti vakolatxonasi ochilishini tashkil qilish; 	

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, shuningdek, vazmin, o'zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ko'zda tutilayotgan eng muhim chora-tadbirlar

	Orol dengizi halokati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojealar ta'sirini yumshatishga qaratilgan amaliy harakatlarni qat'iy davom ettirish Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejasida:	
Orolbo'yi hududlarida amalga oshirilayotgan ulkan qurilish va obodonchilik ishlarini izchil davom ettirish; 	BMT bilan hamkorlikda tuzilgan Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondi doirasidagi amaliy ishlarni davom ettirish; 	
	Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini kengayirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning hududlarida ekoturizmni rivojlantirish Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejasida:	
“Markaziy Qizilqum” milliy tabiat bog'i, “Oqtog' (Tomdi)” davlat qo'riqxonasi tashkil etish; 		“Janubiy Ustyurt”, “Markaziy Qizilqum” milliy tabiat bog'lari, Sudochie Akpetki davlat buyurtma qo'riqxonasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ekoturizmni rivojlantirish;

Iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatish O'zbekiston Respublikasining uzoq muddatli davlat siyosatini ishlab chiqish Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejasida:		
	O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshi kurash strategiyasini tasdiqlash;	
		iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha mintaqaviy strategiya loyihasini tayyorlash nazarda tutilmoqda.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, shuningdek, vazmin, o'zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ko'zda tutilayotgan eng muhim chora-tadbirlar

	“Jaholatga qarshi ma’rifat” g’oyasi asosida aholining mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va islom dinining insonparvarlik mohiyatini targ’ib qilish			
Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejasida: mutaassiblik eskremizm va terrorizmga qarshi kurashish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy va targ’ibot tadbirlarini o’tkazish;				30-iyul Xalqaro do’stlik kunini yurtimizda “Xalqlar do’stligi kuni” deb belgilash to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini tayyorlash;
	Inson huquqlari sohasida jamoatchilik monitoringi tizimini shakllantirish Ishlab chiqiladigan O‘zbekiston Respublikasi qonun loyihasida:			
“Jamoatchilik nazorati to’g’risida”gi Qonunga jamoatchilik nazoratining har bir shaklini amalga oshirish mexanizmlari va tartib-taomillarini belgilash yuzasidan o’zgartirish kiritish;			 inson huquq va erkinliklariga taalluqli xalqaro va milliy huquqiy normalarning amalga oshirilishini nazorat qilish bo’yicha “jamoat inspektori”, “jamoat kuzatuvchisi”, “jamoat komissiyasi” institutlarini shakllantirish;	
	inson huquqlari sohasidagi qonunlar samaradorligini baholash va ilmiy asoslangan hamda chuqur o’ylangan jamoatchilik monitoringi tizimini shakllantirish nazarda tutiladi.			


O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyat kontsepsiyasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjat loyihasida mamlakatimizning ochiq va pragmatik tashqi siyosatni izchil amalga oshirish hamda belgilangan strategik rejalarning jadal ijrosini ta’minlash maqsadlari ko‘zda tutilmoqda.	
---	---

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, shuningdek, vazmin, o‘zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘zda tutilayotgan eng muhim chora-tadbirlar	
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqida ilgari surilgan tashabbuslarni parlamentlararo darajada targ‘ib qilish	
Ishlab chiqilgan Oliy Majlis palatalari Kengashining qo‘shma qarori loyihasida:	
	Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to‘g‘risidagi xalqaro kodeksni qabul qilish;
	Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda va inson huquqlarini ta’minlashda parlamentlar rolini oshirish to‘g‘risida BMT Bosh assambleyasining maxsus rezolutsiyasini tasdiqlash;
	BMTning global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha mintaqaviy qo‘shma harakatlar rejasi doirasida erishilgan natijalar va o‘zaro hamkorlik istiqbollari bag‘ishlangan xalqaro konferensiyani tashkil etish;
	BMT huzurida Afg‘oniston bo‘yicha doimiy qo‘mita tuzish;
	Orol dengizi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e’lon qilish to‘g‘risida BMT Bosh assambleyasining maxsus rezolutsiyasini targ‘ib qilish nazarda tutilmoqda.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, shuningdek, vazmin, o‘zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘zda tutilayotgan eng muhim chora-tadbirlar

	Xorijiy mamlakatlardagi O‘zbekiston mehnat migrantlariga xizmat ko‘rsatish, ularning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish tizimini tubdan rivojlantirish.
Tayyorlanadigan idoralararo chora-tadbirlar rejasida:	
	O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijiy mamlakatlarda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib berish, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, sog‘ligi va hayotini sug‘urtalash;
	Vakolatli davlat organlari o‘rtasida idoralararo me‘yoriy-huquqiy hujjat imzolash;
	O‘zbekistonning chet eldagi konsullik idoralari faoliyatini takomillashtirish, xususan fuqarolarga ko‘rsatiladigan onlayn konsullik xizmatlarini kengaytirish;
	mehnat migrantlari ko‘p bo‘lgan davlatlarda konsulxonalar va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakolatlarini ochish.
	Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilishi va mazkur mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlash yo‘lidagi global sa’y-harakatlarni faol qo‘llab-quvvatlash. Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog‘laydigan Trans-afg‘on transport yo‘lagini barpo etish borasida aniq manzilli tadbirlarni amalga oshirish.
Ishlab chiqiladigan amaliy chora-tadbirlarda:	
	Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatirish qaratilgan harakatlarni ikki va ko‘p tomonlama formatlarda ilgari surish;
	Afg‘onistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, qayta tiklash jarayonlariga ko‘maklashish maqsadida BMT huzurida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi qo‘mita tashkil etish bo‘yicha BMT kotibiyati va a’zo davlatlar bilan muzokaralar o‘tkazish;
	Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog‘laydigan Trans-afg‘on transport yo‘lagini barpo etish borasida manzilli tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;
	O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasida parlamentlararo do‘stlik komissiyasini tuzish;
	O‘zbekistonga Afg‘oniston parlamenti delegatsiyasi tashrifini tashkillashtirish nazarda tutilmoqda.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, shuningdek, vazmin, o‘zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘zda tutilayotgan eng muhim chora-tadbirlar

	BMTning voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish uchun boshqaruv prinsiplari (Ar-Riyod boshqaruv printsiplari) O‘zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlari va dasturiy hujjatlarida amalga va tizimli aks ettirilishini inobatga olib, unda O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish;
	Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston bilan yaqin qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish.
Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejasida:	
	O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama va mintaqaviy aloqalarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari dasturini ishlab chiqish;
	Oliy va yuqori darajada o‘zaro tashriflarni tashkil etish;
	“Xalq diplomatiyasi” mexanizmlaridan samarali foydalanish;
	Yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni birgalikda hal etish;
	Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmining o‘sishi va hamkorlikni mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish;
	Mintaqaviy tranzit va logistika salohiyatidan samarali foydalanish va transport infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash;
	Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqalari(shu jumladan, chegara hududlari) o‘rtasidagi hamkorlikni faollashtirish nazarda tutilmoqda.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, shuningdek, vazmin, o‘zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘zda tutilayotgan eng muhim chora-tadbirlar

	O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida iqtisodiy diplomatiyani faol ilgari surish, ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar rejasida:
	respublikaning eksport salohiyatini yanada oshirish maqsadida tadbirkorlarga yangi xorijiy hamkorlar bilan aloqa o‘rnatishda ko‘maklashish;

	hududiy loyihalarga xorijiy investorlarni keng jalb qilishga amaliy yordam berish;
	xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning moliyaviy-texnik ko'maklari va grantlarini jalb etish;
	Chet elda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va sayyohlik salohiyatini oshirish jarayonlariga faol jalb qilish maqsadida “Vatandoshlar” maxsus jamg'armasini ta'sis etish.
	O'zbekiston Respublikasining 2021-2022 yillarda Shanxay hamkorlik tashkilotida raisligining ustuvor yo'nalishlari va asosiy tadbirlarini ishlab chiqish.
Tayyorlanadigan chora-tadbirlar rejasida:	
	SHHT doirasida iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, xalqaro terrorizm ekstremizm va transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish, tashkilot tomonidan qabul qilingan qarorlarning amaliy natijadorligini oshirish va a'zo davlatlar o'rtasida gumanitar aloqani yanada mustahkamlash;
	SHHT xavfsizlik rahbarlari kengashining majlisi, SHHT davlatlari Tashqi ishlar vazirlari kengashining majlisi, SHHT davlat rahbarlari kengashining majlisi va boshqa tadbirlarni o'tkazish bo'yicha choralarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

“Brifing” metodi

“Brifing”- (ing. Briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press-konferensiya.

O'tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o'yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag'ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo'ladi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

TESTLARDAN NAMUNA №7.

1. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida qanday taklif bilan chiqdi.

a) “Islom madaniyatlararo sivilizatsiyasi” deb nomlangan maxsus rezolutsiyani qabul qilish

b) "Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolutsiyani qabul qilish*

c) “Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik” deb nomlangan maxsus rezolutsiyani qabul qilish

d) “Islomiy ma’naviyat va ma’rifat” deb nomlangan maxsus rezolutsiyani qabul qilish

2. O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari muassasalari faoliyati qaysi yilda tashkil etildi?

a) 2011-yil

b) 2014-yil

c) 2017-yil*

d) 2016-yil

3. O‘zbekistonda Xalqaro Islom akademiyasi tashkil etilgan yilni toping.

a) 2011-yil

b) 2014-yil

c) 2016-yil

d) 2017-yil*

4. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 75 -sessiyasida 2020-yilning o‘zida necha ming kishiga O‘zbekiston fuqaroligi berilganini eslatib o‘tdi.

a) 50 ming*

b) 48 ming

c) 45 ming

d) 60 ming

5. O‘zbekiston YUNESKO bilan hamkorlikda qadimiy Xiva shahrida “Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” degan mavzuda xalqaro forumni qachon o‘tkazadi?

a) 2020-yilda

b) 2021-yilda*

c) 2022-yilda

d) 2023-yilda

XULOSA

O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fani o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan maqsadlarni qisqa va mazmunli qilib talabalarga yetkazib berishda quyidagi xulosalarga kelindi:

1) Fanning maqsadi, vazifalari, mazmuni va malakaviy talablar asosida, mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishiga oid qonuniyatlar, tamoyillar, ustuvor yo‘nalishlar, islohotlarni amalga oshirish mexanizmlari va unga doir zamonaviy konsepsiyalar ochib berildi.

2) Yangilanayotgan O‘zbekistonda modernizatsion o‘zgarishlarning ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy, madaniy, siyosiy sohalar orqali amalga oshirilishi bo‘yicha 2021-yilgacha bo‘lgan ma‘lumotlar bilan boyitildi.

3) O‘zbekistonda barpo etilayotgan adolatli demokratik davlat va jamiyat qurilishi tizimida olib borilayotgan islohotlarning sifat ko‘rsatgichlari aniq va qisqa raqamlarda ko‘rsatib berildi.

4) Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarini demokratlashtirish va liberallashtirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda aholining ishtirokini ta‘minlash, davlat va xalq o‘rtasida samarali muloqotni o‘rnatishning asosiy yo‘nalishlariga urg‘u berilib statistik raqamlar havola qilindi.

5) “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “*Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak*”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat boy va qudratli bo‘ladi”, “Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga” kabi konseptual g‘oyalarning mazmun-mohiyati dalillandi.

6) Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmati tizimini isloh qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini ko‘rsatib o‘tildi.

7) Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta‘minlashi, ma‘muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar mazmun-mohiyati haqida umumiy tushuncha berildi.

MUSTAQIL TA‘LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni o‘qitishning interfaol usullarini qo‘llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta‘limini tashkil etish tizimli tarzda, ya‘ni uzluksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi.

Talaba olgan nazariy bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi Yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash;
- fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Mustaqil ta'lim bo'yicha tavsiya etiladigan taxminiy mavzular:

1. O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning maqsadi.
2. O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning asosiy yo'nalishlari.
3. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini tushuntirish.
4. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.
5. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari.
6. Ijtimoiy sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish.
7. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash.
8. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari va tamoyillari.
9. Yoshlar muammolarini hal etishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.
10. Mahalliy boshqaruvda fuqarolik jamiyati institutlarining roli.
11. Virtual qabulxonalar jamiyatni demokratlashtirish me'zoni.
12. Xalq qabulxonalari ijtimoiy institut sifatida.
13. Mahalla fuqarolik jamiyati instituti sifatida. (O'zingiz yashayotgan mahalla faoliyati misolida tahlilni amalga oshiring).
14. Fuqarolik jamiyati institutlari oldida turgan muammolarni tahlil qiling. (Biror-bir institut faoliyati misolida).

GLOSSARIY

Advokatura-huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining advokatura to'g'risidagi qonuni 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan.

Adliya-(arab.-adolat)-sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama.

Adolat (arab. – odillik, to'g'rilik) – u yoki bu qadriyatlarning o'zaro umumiy munosabatini va ularning individlar o'rtasida konkret taqsimlanishini ifodalovchi tushuncha; insonning mohiyati va uning ajralmas huquqlarini haqidagi tasavvurlarga mos bo'lgan jamoa tartibi.

Adekvat – (lot. tenglashgan) aynan o'xshash, teng ma'noli.

Amnistiya –jinoiyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to'liq yoki qisman jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o'tab bo'lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya'ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Aspekt – (lot. tur) 1) predmet, tushuncha, hodisa, ushbu damda qabul qilinayotgan nuqtai nazar; 2) biror hodisaga ma'lum jihatdan yondashish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – axborot foydalanuvchilari manfaatida uni yig'ish, ishlash, saqlash, tarqatish, aks etish va foydalanish maqsadida integrallashgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlar va dasturiy-texnikaviy vositalar majmui. Bugungi kunda AT tushunchasiga mikroelektronika, kompyuterlar va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va ishlab chiqarish, aloqa va telefoniya, mobil servislar, Internetdan foydalanishni ta'minlash, Internet axborot resurslarini ta'minlash kiradi.

«Axborot jamiyati» konsepsiyasi – industrial va postindustrial jamiyat nazariyalarining davomi. Unga ko'ra ijtimoiy tizimlarni o'zgartirishning yangi omili sifatida informatika, kompyuterlar va elektronika chiqadi va ular negizida yangi sinflar va millatlardan yuqori ijtimoiy guruhlar (uyushmalar) vujudga keladi, ijtimoiy rivojlanish mexanizmlari o'zgaradi. Nazariyotchilari O.Tofler, J.Neysbit, E.Masuda va boshqalar. «Axborot jamiyati»da insonning barcha muammolari axborotdan global foydalanish hisobiga hal qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalardir.

Vazirlar Mahkamasi – mustaqil O'zbekiston Respublikasi hukumati. 1992-yilda qabul qilingan konstitutsiyaga ko'ra Vazirlar Mahkamasi deyiladi. Uning

a'zolari Prezident tomonidan tavsiya etiladi va Oliy Majlis tomonidan besh yil muddatga tasdiqlanadi.

Vakillik hokimiyati – hokimiyatni amalga oshirishning bir turi. Vakillik hokimiyatini O'zbekistonda Oliy Majlis va xalq deputatlari Kengashlari amalga oshiradi.

Vijdon erkinligi – ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi.

Genezis – yunon. genesis- kelib chiqish; paydo bo'lish, tashkil topish jarayoni.

Gildiya tizimi – (nem. korporasiya) elitarni shakllantirish tizimlaridan biri. Unga 1) epiklik, yuqori lavozimlarga elitaning quyi qatlamlaridan nomzod tanlash, yuqoriga siljishning pog'onaviyligi; 2) lavozimlarni egallash uchun ko'plab rasmiy shartlarning mavjudligi; 3) tanlovni alohida imtiyozli kichik guruh amalga oshirishi; 4) mavjud yetakchi tipini tiklashga, yaratishga, saqlab qolishga harakat qilinishi singarilar xos.

Gumanizm (insonparvarlik) – tenglik, adolat, o'zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g'amxo'rlik qilish g'oyalari singdirilgan dunyoqarash.

Guruh – manfaatlar, qarashlar, kasbiy faoliyat tarzi bo'yicha birlik va umumiylik kasb etgan shaxslar yig'indisi, birlashmasi.

Davlat – muayyan hududda jamiyat va uning siyosiy tizimini tashkil etish usuli, hokimiyatning markaziy instituti, jamiyatning siyosiy tashkiloti bo'lib, ma'lum bir hudud va unda yashovchi xalqlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatni boshqaruvga tizim sifatida davlat ichki tizimga o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlarga ega. Davlat odamlar va jamoat guruhlarining faoliyati hamda munosabatlarini tashkil etadi, ularni yo'naltiradi va nazorat qiladi.

Demokratlashtirish – milliy g'oyaviy qarash tamoyillarini o'rnatish, g'oyaviy qarash tuzum barpo qilish, g'oyaviy qarash tadbirlarni amalga oshirish.

Diaspora – yun. diaspora – tarqalish ma'nosida bo'lib, ma'lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o'z davlat tuzilmasiga ega, ma'lum bir xalq, millat vakillarining yig'indisi (masalan O'zbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi).

Diversifikasiya – lot. diversification – o'zgarish, turli-tumanlik, faoliyatni har tomonlama va turli-tuman yo'nalishlarda rivojlantirishga strategik mo'ljal olish. Masalan, kapitalni diversifikatsiyalash – iqtisodiy tavakkalchilikning xavfli oqibatini kamaytirish maqsadida kapital mablag'larni turli obyektlar o'rtasida bo'lib-bo'lib joylashtirish.

Diniy bag'rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfiy, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

Evroposentrizm – Gʻarbiy Yevropa madaniyati butun insoniyat uchun naʼmuna, deb qarovchi konsepsiya. Unga koʻra Gʻarbiy Yevropa – jahon taraqqiyoti markazidir.

Jazo – huquqbuzarlik sodir etishda ayblangan shaxslarga nisbatan qoʻllanadigan maʼnaviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bogʻliq boʻlgan majburlov chorasi.

Jamiyat – insonlar munosabati va ijtimoiy aloqalar yigʻindisi. Jamiyat tarixiy, moddiy-maʼnaviy hayot tarzidan kelib chiqqan holda umumiy orzu-maqсадlari bilan birlashgan insonlar uyushmasining alohida shakli. Jamiyat doimo oʻzgarish va rivojlanishda boʻlib, uning asosini doimo insonlar tashkil etadi.

Jinoyat – qonundanazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish.

Ijtimoiy adolat – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda oʻz oʻrni mavjudligini va qonun oldida ularning oʻzaro teng huquqlarga ega ekanligini eʼtirof etish.

Ijtimoiy manfaat – bu barcha jamiyat aʼzolarining birgalikda roʻyobga chiqadigan manfaatlaridir.

Ijtimoiy hamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarining umumiy maqsad yoʻlidagi hamjihatligi.

Ijtimoiy sheriklik – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor boʻlgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir.

Iqtisodiy mustaqillik – muayyan bir mamlakatning shu mamlakatda mavjud ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga, tabiiy va maʼnaviy boyliklarga va shu boyliklar tufayli yaratilgan mahsulotdan tushgan milliy daromadga va uni taqsimlashga yagona eʼgalik qilishi.

Iqtisodiy resurslar – maʼlum davrda maʼlum bir mamlakat ixtiyorida toʻplangan va mavjud boʻlgan ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish, ularni isteʼmolchilarga yetkazib berish va isteʼmol jarayonlarida qoʻllanilishi mumkin boʻlgan vositalar, qoʻr-qtillar, imkoniyatlar va manbalardir.

Inson omili – inson mohiyatiga xos boʻlgan eng muhim xususiyatlarni – insondagi jismoniy – ruhiy tomonlarning birligi.

Inson huquqlari – unga tor maʼnoda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, oʻzboshimchalik va noqonuniy ushlash yoki qamash, vijdon va din erkinligi, otalarning oʻz bolalarini tarbiya qilish huquqlari kiradi.

Institut – lot. institutum-mahkama, idora, muassasa; tizimlashtirilgan, hammaga tanilgan, amalda qoʻllanilayotgan va eʼtirof etilgan (har qachon ham oʻz rasmiy tasdigʻini topavermaydigan), u yoki bu tarzda mustahkamlangan qoidalar va meʼyorlarga muvofiq oʻzaro xatti harakat qilish uchun qoʻllab-quvvatlanayotgan

ko'rsatmalarga ega bo'lgan ijtimoiy agentlarning o'zaro hatti harakatlari shakllari kiradi.

Integrasiya - lot. integratio-tiklanish, bajarish; integer-bir butun; qandaydir qismlarning bir butunlikka birlashishi.

Interaktiv davlat xizmatlari – idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikasiya tarmoqlari orqali ko'rsatiladigan xizmatlar. O'zbekistonda bu xizmatlar 2013-yil 1-iyuldan harakat qiluvchi hamda davlat organlarining aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan o'zaro hamkorligining qulay va samarali vositasi sifatida xizmat qiluvchi my.gov.uz Interfaol Davlat xizmatlari yagona portali orqali ko'rsatiladi.

Interfaol muloqot – real vaqt rejimida turli OAV (asosan Internet) vositasida “jonli” muloqot qilish. Shartli ravishda bunday muloqotning bir necha shaklini belgilash mumkin.

Kasaba uyushmalari – korxona, muassasa, o'quv yurti va boshqa mehnat jamoalarida ishlayotgan ishchi va xodimlarni ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishlovchilarning ijtimoiy sherikchiligini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti;

Konfessiya -lot. cōfessio dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo'nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha.

Konsepsiya - lot. conceptio-idrok qilish, idrok, o'zlashtirish; u yoki bu hodisalarga nisbatan qarashlar tizimi; qandaydir hodisalarni ko'rib chiqish, nimanidir anglash usuli.

“Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi demakdir.

Kuchli fuqarolik jamiyati – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta'minlangan, qonun ustuvor bo'lgan jamiyat.

Qonun – qonunchilik hokimiyatining fuqarolar, jamiyat va davlat hayotiga taalluqli munosabatlarda muayyan tartib joriy etish borasidagi irodasining namoyon bo'lishi.

Qonun ustuvorligi – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat'iy hukmron bo'ladi. Ya'ni, hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo'ysunadi. Huquqiy normalarni tadbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

Legitimlik – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimiyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini anglatuvchi qadriyatli tushuncha. Tarixan an'anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda namoyon bo'ladi.

Liberalizm – (lot. erkinlik) mafkura, ijtimoiy-siyosiy harakat. U ijtimoiy imtiyozlar va avloddan-avlodga o'tuvchi hokimyatga qarshi chiqib burjua qatlamlarining qarashlarini o'zida mujassam etadi. Asosiy tamoyillari: individualizm, erkinlik, bozor va raqobatning mutloqligi, davlatni cheklash zarurligi (asoschilari I.Bentam, J.Mill, A.Smit, G.Spenser).

Liberallashtirish – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo'lishini, jamiyatning evolyutsion rivojlanish yo'lini e'tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

Mahalliy (yoki munisipal) boshqaruv – ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo'yiladigan organlar hamda ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish.

Ma'naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Ma'naviy tahdid – tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion hurujlarni nazarda tutadi.

Ma'rifat – ta'lim tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy va ma'naviy boylklarning, ularni yanada ko'paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

Mentalitet – fran.mentalite; lot mentalis-aqliy, ruhiy, ma'naviy, aql yo'nalishi, aql bichimi, aqliy yetuklik, zakovat; ma'lum shaxs, ijtimoiy guruh (kichik, katta, milliy) qilish uchun xarakterli bo'lgan dunyoqarash, dunyoni anglash, atrof voqelikni qabul usuli; fikrlash tarzi.

Mexanizm – yunon. mechane-qurol, inshoot; harakat va tezlikni amalga oshirish yoki uzatish qurilmasi. Siyosatda majoziy ma'noda biron-bir reja, dastur, maqsadni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini va vositalariga nisbatan qo'llaniladi.

Millat – til, ma'naviyat, milliy o'zlikni angash ruhiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil subyekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boylklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir.

Millatlararo munosabatlar — birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o'rtasida amalga oshadigan turli-tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir.

Milliy qadriyat – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyat shakli.

Milliy mafkura – millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo‘lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g‘oyaviy asoslash, ta‘minlashga qaratilgan qarashlar tizimi

Model – fran. modele-namuna, tarx, nimanidir tasviri tavsifi.

Modernizasiyalash – fran. modernizer-zamonaviy; zamonaviylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishdagi o‘zgarishlarni amalga oshirish.

Munisipal boshqaruv – ingl. munisipal o‘zini o‘zi boshqarish; bu boshqaruvning nisbatan nomarkazlashgan shaklidir. Shu bilan bir vaqtning o‘zida u fuqarolik jamiyatining instituti hisoblanadi.

Nizom – muayyan davlat yoki jamoat tuzilmalarini tashkil etish tartibini, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kodekslashtirilgan normativ hujjat hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Ommaviy axborot vositalari – keng ko‘lamda axborotni yig‘ish, ishlash va tarqatishni ta‘minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televidenie va h.k.). «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida.(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 3-son, 20-modda)

Parlament – ingl. parlament, frans. parler gapirmoq va so‘zlamok; parlament oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

Partiya – lot. pars (partic)-qism, guruh; qandaydir ijtimoiy qatlam yoki guruh manfaatlarini ifodalovchi, qandaydir siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi tashkilot.

Prezident – lot. praesidens (praesidentia) – oldinda o‘tiruvchi, raislik qiluvchi, boshda turuvchi so‘zlaridan olingan bo‘lib, ko‘pchilik prezidentlik va parlament respublikalari joriy etilgan mamlakatlarda ma‘lum bir muddatga saylangan davlat boshlig‘i.

Prinsip – lot. principium-asos, dastlabki, boshlang‘ich; asos bo‘ladigan poydevor g‘oyalar; xulq, faoliyat va hatti-harakatning asosiy qoidasi.

Profisit – byudjetga nisbatan qo‘llanilganida byudjetning daromad qismini uning xarajat qismiga nisbatan ortiq bo‘lganligini ifodalaydi.

Rasional – (lot. rationalis-oqilona); maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to‘g‘ri yo‘l ma‘nosida ham ishlatiladi).

Senat – lot. senatus-eski, qariya; ko‘pchilik mamlakatlar parlamentining yuqori palatasi.

Siyosiy partiyalar – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy

tizimining muhim qismi, ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

Suveren – fran. souverain-oliy so‘zidan olingan bo‘lib, oliy, suverenitetga ega bo‘lish, mustaqil, qaram bo‘lmagan ma‘nolarini beradi.

Suverenitet – (fran. “souveränität”) davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralashuvlarga yo‘l qo‘ymagan holdagi mustaqilligi va muxtoriyati.

So‘z erkinligini ta‘minlash – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o‘z fikrini (hayolini) oshkora (og‘zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” – istiqlolning dastlabki yillarida O‘zbekiston birinchi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan islohotlar strategiya bo‘lib, taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o‘tish tajribasi, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olingan. Bunda jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi: 1) iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; 2) davlat – bosh islohotchi; 3) jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi; 4) aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; 5) bozor iqtisodiyotiga obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o‘ylab, bosqichma-bosqich o‘tish.

Tolerantlik – fr. tolyerant (lat. Tolerāns-tolerantic) hozirgi o‘zbek tilida lug‘aviy tarjima qilganda chidamlilik, sabrlilik, bardoshlilik, toqatlilik ma‘nolarini anglatadi. Endi bu tushuncha chidam, sabr-toqat ma‘nolarini yo‘qotmagan holda ko‘proq bag‘rikenglik, hamjihatlik, hamkorlik kabi mazmunda talqin etila boshlandi.

Transformasiya – lot. transformatio – o‘zgarish; tuzilmalarni, shakllarni va usullarni o‘zgartirish, faroliyatning maqsadli yo‘nalishini o‘zgartirish.

O‘zini o‘zi boshqarish – (ingl. municipal o‘zini o‘zi boshqarish); u yoki bu ma‘muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma‘muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlarni boshqarishga aytiladi. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig‘inlari kiradi.

Uchinchi sektor – dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko‘rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo‘llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

Unitar davlat – yagona, bo‘linmas bir yaxlitlikni tashkil etuchi davlat shakli.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy asosi – fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini tuzish, birlashtirish, tugatish hamda

ularning chegaralarining o'rnatish va o'zgartirish tartib-qoidalarini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

Fuqarolik – insonlarni muayyan davlat, davlatchilik bilan bog'liq huquqiy holatlarini, munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir.

Fuqarolik jamiyati – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida tegishli fuqarolik institutlari orqali faol ishtirok etishi ta'minlangan ijtimoiy makondir.

Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

Fuqarolik mas'uliyati – qonun ustuvorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish.

Funksiya – lot. functio-faoliyat, o'tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

Xalqaro munosabatlar nazariyasi – siyosiy tadqiqotlar sohasi bo'lib, uning predmetini xalqaro tashkilotlar va uyushmalar (BMT, NATO, OBSE va h.k.), davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati, xalqaro munosabatlar tashkil etadi. U shuningdek urush va tinchlik, xalqaro ixtiloflarni oldini olish va ularni boshqarish, yangi xalqaro tartibni shakllantirish masalalarini ham o'rganadi.

Xalqaro siyosat – xalqaro munosabatlar subyektlarining birgalikdagi, maqsadli siyosiy faoliyati; BMT va dunyo hamjamiyatining boshqa qonuniy va e'tirof etilgan organlari va tashkilotlari faoliyatida namoyon bo'luvchi birlashgan manfaat.

Huquq – davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiyatdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta'minlashga imkoniyat berish maqsadlarida davlat tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan umum majburiy ijtimoiy me'yorlar va qoidalar.

Huquqiy davlat – huquq, Konstitutsiya va Qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z ma'suliyatlarini his qilishlari, o'z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi mas'uliyatlarini his qilishlari kerak. Bu mas'uliyatni oshirish orqali huquqiy g'oyaviy qarash davlat shakllantiriladi va rivojlantiriladi hamda bu jarayon uzoq muddatni talab etadi.

Huquqiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim qismi. Huquqiy madaniyat tarixan asta – sekin shakllangan ijtimoiy voqea bo'lib, hozirgi davrda ilg'or huquqiy davlatlarning va ularni fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylangan.

Evolutsiya (lotin tilidan tarjimasi – boshlash, vujudga kelish) – tizimning rivojlanish jarayonini anglatadigan tushuncha bo'lib, birinchi galda jamiyatga xosdir. Unga ko'ra, jamiyatda asta-sekin yuz berayotgan o'zgarishlar tizimga, uning tuzilmalari tashkil qilinishi va funksiyalari sifatli o'zgarishiga olib keladi.

Elektorat – saylovlarda ma'lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider)ga ovoz beruvchi saylovchilar davrasi; ma'lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmui.

Elektron hukumat – (angl. e-Government) – bu fuqarolar, biznes, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari va davlat xizmatchilariga axborotni taqdim qilish va shakllanib bo'lgan davlat xizmatlarining to'plamini ko'rsatish usulidir, bunda davlat va arizachi o'rtasidagi o'zaro shaxsiy aloqa minimallashtirilgan va imkon boricha maksimal ravishda axborot texnologiyalardan foydalaniladi.

Emissiya – fr. émission – chiqarish; pul emissiyasi - muomalaga yangii pullarni chiqarish, muomaladagi pul hajmini ko'paytirish. Emissiya naqd yoki naqd pulsiz bo'lishi mumkin.

Erkinlashtirish – mamlakatning g'oyaviy qarash jamiyatga o'tish va islohotlar o'tkazish jarayonida mavjud bo'ladigan turli to'siqlar, cheklashlar va yon berishga majbur etadigan omillardan qutilishga qaratilgan amaliy faoliyatdir. U g'oyaviy qarash jarayonlarning samarali rivojiga yangi kuch, quvvat va ilhom bag'ishlash imkoniyatini yaratadi.

Etnos – yun. ethnos - xalq, qabila, to'da, kishilar guruhi, irq ma'nolarni anglatadi.

Yuksak ma'naviyat – inson ma'naviyatining eng yuqori darajasi bo'lib, u insonlarni eng ezgu va ulug' maqsadlarga yo'naltirishga xizmat qiladigan ona Vatan baxti iqboli yo'lida buyuk jasoratga chorlaydigan yengilmas kuchdir.

Yurt tinchligi – milliy mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri, mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti.

Yakka shakldagi manfaat – bir kishining ehtiyojlarini ifoda etuvchi manfaatlar majmuidir.

FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016, 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017, 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017, 491 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. I-jild - Toshkent: O'zbekiston, 2017, 592 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. II-jild – Toshkent: O'zbekiston, 2018, 592 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" III- jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019, 400 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. IV jild – Toshkent: "O'zbekiston", 2020, 400 b.

8. Karimov I.A. Asarlar to'plami, 1-23 jildlar. –T.: O'zbekiston, 1996- 2016.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining 20 yalpi majlisidagi nutqi. –T., 2019.21.06.

10. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma'ruzalaridan olingan fikrlar. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2019.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalari (2017, 2018, 2019, 2020-yil 24-yanvar, 2020-yil 29-dekabr).

Asosiy adabiyotlar:

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. T.: G'afur G'ulom. 2017.

2. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –T.: Sharq, 2003.

3. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O'zbekiston, 2010.

4. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.

5. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi –T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900>

6. O'tamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati. Lotin yozuvida. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017. 23 b.t.

7. O'tamuradov A, Qirg'izboyev M, Xojiev T. Fuqarolik jamiyati / O'quv qo'llanma. Lotin alifbosida. – T.: Mumtoz so'z. 2018. 395 bet.

8.O‘tamuradov A. Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolutsiyasi. –T., “Adabiyot uchqunlari”, 2018. B.193.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1.Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

2.Nizomulmuluk. Siyosatnoma yoki siyarul-muluk –T.: Adolat, 1997.

3.Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, siyosiy mafkuralar, siyosiy madaniyatlar. – T.: Sharq. 1998.

4.Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq, 2002.

5.O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari: O‘quv qo‘llanma / – T., Do‘stjonov, M. Mirhamidov, S. Hasanov. – T.: Iqtisod – Moliya, 2006.

6.Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

7.Abduazimov O. Fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari. – T.: Akademiya, 2008.

8.Tolibov I.I. Fuqarolik jamiyati: tushunchasi, institutlari, asosiy prinsiplari va funksiyalari / Red. A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2008.

9.Malikova G.R. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari – milliy demokratik institut / Mas’ul muharrir A.X. Saidov. – T.: TDYUI nashriyoti, 2009.

10.Муминов Е.А. Модернизация гражданского общество в Республике Узбекистан и Королевстве Испания. – T.: IPTD имени Г. Гуляма, 2011.

11.Мавлонов Ж.Ё. Гражданское общество: от концепта к концепциям и парадигмам (социально-философский анализ). Монография – T.: Istiqlol nuri, 2014.

12.Mavlonov J. Коммуникативные основы деятельности институтов гражданского общества: тенденции и инновации / Монография. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.

13.Nishanbayeva E.Z. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklik tamoyillari. – T.: Sharq, 2015.

14.Hasanov R., O‘tamurodov A. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. Uslubiy qo‘llanma. – T.: 2016. 14 b.t.

15.Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug‘ati. – T.: Turon-Zamin, 2017. 19,5 b.t.

16.Utamuradov A. Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari // O‘quv uslubiy qo‘llanma, – T., Brok klass Servis. 2017. 6,2. B.T.

17.Muminov A, E.Nishanbayeva, A.Abduxalilov. Ijtimoiy sheriklik. – T.: Universitet. 2018.

Chet el adabiyotlari:

1.Walzer M. Concept of Civil Society -Walzer M., ed. Toward a Global Civil Society.Providence RI: Berghahn Books. 1995.

2.Schmitter Ph. Civil society East and West// Consolidation the Third Wave Democracies: Themes and Perspectives/ Ed. by L.Diamond et al. Baltimore and London: The Johns Hopkins U.P., – 1997. – P.239-262.

3.O'Connell, Brian. Civil Society: The Underpinnings of American Democracy. Medford, Mass:Tufts University Press, –1999.

Elektron ta'lim manbaalri:

www.press-service.uz

www.ziyonet.uz

www.nimfogo.uz

www.gov.uz

<http://press.natlib.uz>

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISHDA QO‘LLANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI.....	5
1-MAVZU: O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	7
SEMINAR MASHG‘ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI	7
TESTLARDAN NAMUNA №1.	14
2-MAVZU: HARAKATLAR STRATEGIYASI – O‘ZBEKISTON MILLIY	16
AMALIY MASHG‘ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI.....	16
TESTLARDAN NAMUNA №2.	19
3-MAVZU. DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	21
O‘QUV MASHG‘ULOTINING TA‘LIM TEXNOLOGIYASI MODELİ	21
TESTLARDAN NAMUNA №3.	30
4-MAVZU. QONUN USTUVORLIGINI TA‘MINLASH VA SUD HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI	32
AMALIY MASHG‘ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI.....	32
TESTLARDAN NAMUNA №4.	42
5-MAVZU.IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI	44
AMALIY MASHG‘ULOT TEXNOLOGIK XARITASI.....	44
TESTLARDAN NAMUNA №5.	53
6-MAVZU: IJTIMOIIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH	55
TESTLARDAN NAMUNA №6.	73
7-MAVZU. XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH.....	74
AMALIY MASHG‘ULOTNING TEXNOLOGIK KARTASI.....	74
TESTLARDAN NAMUNA №7.	84
XULOSA	85
MUSTAQIL TA‘LIM VA MUSTAQIL ISHLAR	85
GLOSSARIY	87
FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR.....	96

X.A. BERDIYEV

**O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH
STRATEGIYASI.
FUQAROLIK JAMIYATI**

**Seminar mashg‘ulotlari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma
I-qism**

Toshkent – «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» – 2021

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Rassom:	U.Ortiqov
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	U.Zoirova



E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 71-247-38-03, 93-381-22-07.

Bosishga ruxsat etildi 05.05.2021.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. «Timez New Roman» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 6,0. Nashriyot bosma tabog‘i 6,25.

Tiraji 30. Buyurtma № 61.

**«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.**

Toshkent sh., Foziltepa ko‘chasi, 22 b uy.



Toshkent davlat texnika universiteti “Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi dotsent v/b tarix fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Berdiyev Xayriddin Abdulloyevich 1968-yil Samarqand viloyati Nurota tumani (hozirda Navoiy viloyatiga qaraydi). 1994-yil Samarqand davlat universitetining tarix fakultetini tugatgan.

2002-yil Toshkent davlat aviatsiya instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlari” kafedrasi assistenti, 2008-yildan Toshkent davlat texnika universitetida “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amalyoti”, “Sotsiologiya va milliy g‘oya”, “Ijtimoiy fanlar”, “Falsafa va milliy g‘oya” kafedralarida dastlab katta o‘qituvchi, keyinchalik dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlab kelgan. 2019-yil 28-mayda 07.00.08. – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari yo‘nalishida tarix fanlari (PhD) falsafa doktori dissertatsiyasini himoya qilgan. Shu davrgacha “O‘zbekiston tarixi”, “Madaniyatshunoslik”, “Oila sotsiologiyasi” fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma hamda 2020-yilda bitta monografiyasi nashrdan chiqqan. Milliy g‘oya, O‘zbekiston tarixi, O‘zbekiston toponimiyasi masalalari bo‘yicha 100 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi.